

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI  
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrasи**

Qo`lyozma huquqida

**Turg`unov Sherzod Nurmuhamedovich**

**MILLIY G`OYA MILLIY TARAQQIYOTNING  
MUHIM OMILI**

5111600 – Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi yo`nalishi bo`yicha  
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISh**

Ish rahbari: Katta o`qtuvchi: t.f.n.N.Alimova

**ANDIJON – 2016 yil**

## **MUNDARIJA:**

**Kirish.....3**

### **I-BOB. O`ZBEKISTONDA MILLIY G`OYANING ASOSIY TAMOYILLARINI SHAKLLANTIRILISHI.**

**1.1. O`zbekiston respublikasi Prezidenti I. Karimov tomonidan milliy  
g`oyaning ilmiy-nazariy asoslanishi.....6**

**1.2. Milliy g`oya tushunchasi va uning milliy o`zlikni anglashga  
ta`siri.....19**

### **II-BOB. O`ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MILLIY G`OYANI RO`YOBGA CHIQARISHNING MUHIM JIHATLARI.**

**2.1. Taraqqiyotning o`zbek modeli - Vatan ravnaqi, yurt, xalq  
farovonligi kafolatidir.....32**

**2.2. G`oyalarni amalga oshirishning manaviy-mafkuraviy  
asoslari.....44**

**Xulosa.....56**

**Adabiyotlar.....58**

## K I R I S H .

**Mavzuning dolzarbliji.** Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yangi jamiyat qurishda, shakllanayotgan ko`p ukladli iqtisodiyot va mulkiy tabaqalanish sharoitida oldimizda turgan umumiy vazifalarni anglashda, barkamol avlodni tarbiyalashda xalqning barcha ijtimoiy guruhlari, qatlamlarini birlashtiruvchi g`oya zarurati yuzaga chiqdi.

Bunday g`oya faqat milliy g`oya bo`lishi mumkinligining anglab olinishida O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning asarlari katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu munosabat bilan Prezidentning Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. Buyuk maqsad yo`lidan og`ishmaylik. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. kabi qator asarlarini, milliy g`oya masalasiga bag`ishlangan chiqishlarini, «Fidokor» gazetasiga bergan intervyusini (Islom Karimov. Buyuk maqsad yo`lidan og`ishmaylik. 1-jild. T., «O`zbekiston», 1996. // Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. «Muloqot» jurnali, 1998/5-son. // Islom Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. T., «O`zbekiston», 1999. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., «O`zbekiston», 2000.) ayniqla, 2008 yilda chopetilgan «YUksak ma`naviyat — yengilmas kuch»<sup>3</sup> asarini alohida e`tirof etish joizdir. (Islom Karimov. YUksak ma`naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma`naviyat», 2008.) Islom Karimov o`z asarlarida milliy g`oya zaruratini, milliy g`oyaning mohiyati, nazariy asoslari va tamoyillarini ochib berdi.

Haqiqatan, milliy g`oya tushunchasining mazmun-mohiyatini, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini teran anglash, uni milliy taraqqiyotning ustuvor yo`nali`shari bilan bog`lab, takomillashtirib borish va uning yordamida xalqni ruxlantirish juda muhim. Buning uchun milliy g`oyaning ma`naviy ildizlarini bilish, tadqiq etish, bugungi kundagi uning asosiy tushuncha, tamoyillari otabobolarimiz qarashlarida ham o`ziga xos orzu-intilishlar, qadriyatlar sifatida mavjud bo`lganini o`rganish ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Bu, birinchidan, milliy ongimiz, tafakkurimiz, xalqimiz ijgimoiy fikrining rivojlanish bosqichlarini o`rganishga yordam bersa, ikkinchidan, milliy ji`slikni mustahkamlashga, oliv maqsadlar yo`lida xalqning safarbarligini kuchaytirishga xizmat qiladi, uchinchidan, ta`lim-tarbiya va ma`naviy-ma`rifiy i`shar samaradorligini kuchaytirishdagi, jamiyat a`zolarini, ayniqsa, yoshlarni aniq ijtimoiy mo`ljallar, mezonlar bilan qurollantiradigan, har xil ma`naviy tahtsidlar va g`oyaviy xurujlarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilishdagi ahamiyatini teran tushunish va amalda samaraliroq qo`llash imkonini beradi.

**Mavzuni o`rganganlik darajasi.** Milliy g`oya, madaniy-tarixiy merosda ilg`or g`oyalarning aks etishi, millatlararo munosabatlar, g`oyaviy-mafkuraviy masalalar, ma`naviy tahdidlar, ularga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish haqida Prezident Islom Karimov asarlarida muhim metodologik qarashlar ilgari surilgan. SHuningdek, mazkur masalalar yuzasidan faylasuflar, siyosatshunoslar, adabiyotshunoslar, ma`naviyat masalalari bilan shug`ullanuvchi olimlar, boshqa mutaxassislar tomonidan ko`plab risolalar, maqolalar chop etilgan. Milliy g`oya respublikamizda fan sifatida ta`limning barcha bo`g`inlarida o`qitilmoqda.

Tadqiqotlar orasida M. M. Xayrullaev<sup>1</sup>, H. P. Polatov<sup>2</sup>, Q. Nazarov<sup>3</sup>, D. A. Alimova<sup>4</sup>, A. Erkaev<sup>5</sup>, N. Joraev<sup>6</sup>, V. Qochqorov<sup>7</sup> boshqalarning ishlarini alohida ko`rsatish mumkin.

**Maqsad va vazifalari:** Biz mazkur BMIda xalqimizning adabiy merosida milliy g`oya ildizlari o`ziga xos shaklda aks etgani va ajdoddardan avlodlarga o`tib, tadrijiy rivojlanib kelayotganini kuzatishni maqsad qilib qo`ydik.

Ayni maqsaddan kelib chiqib, quyidash vazifalarni hal qilish ko`zda tutiladi:  
—Prezident Islom Karimov tomonidan milliy g`oya tushunchasining ilmiy-

<sup>1</sup> Xayrullaev M. M. Orta Osiyoda IX—XII asrlarda madaniy taraqqiyot (Uyg'onish davri madaniyati). T., «Fan», 1994.

<sup>2</sup> Po'latov H. P. O'zbek mafkurasi. // Muloqot. Toshkent — 1991, № 6, 7.

<sup>3</sup> Nazarov Q. N. Milliy istiqlol g`oyasining asosiy maqsad va vazifalari. T., «Yangi asr avlodni», 2001. Hozirgi zamон va umuminsoniy qadriyatlar. T., «Ma`naviyat», 1993.

<sup>4</sup> Alimova D. A. Insoniyat tarixi g`oya va mafkuralar tarixidir. T., «Yangi asr avlodni», 2001.

<sup>5</sup> Erkaev A. P. Milliy g`oya va ma`naviyat. T., «Ma`naviyat», 2002. Ma`naviyat va taraqqiyot. T., «Ma`naviyat», 2009.

<sup>6</sup> Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. T., «Ma`naviyat», 2001.

<sup>7</sup> Qo'chqorov V. Ma`naviyat va milliy o'zlikni anglash. T., «Akademiya», 2008.

nazariy asoslanganini ko`rsatish;

—o`zlikni anglashda, milliy mentalitetni rivojlantirishda va xalqni umummilliy maqsadlar tevaragida jipslashtirishda, xalqning bunyodkorlik salohiyatini yuzaga chiqarishda milliy goyaning ahamiyatini ko`rsatish;

—Taraqqiyotning o`zbek modeli - Vatan ravnaqi, yurt, xalq farovonligi kafolati ekanligini yoritib berish.

—G`oyalarni amalga oshirishning manaviy-mafkuraviy asoslarini atroflicha tahlil qilic cerish.

**Ishning ob`etkti:** Milliy g`oya milliy taraqqiyot, O`zbekistonda milliy g`oyaning asosiy tamoyillarini shakllantirilishi va O`zbekiston taraqqiyotida milliy g`oyani ro`yobga chiqarishning muhim jihatlari.

**Predmeti:** O`zbekiston respublikasi Prezidenti I. Karimov tomonidan milliy g`oyaning ilmiy-nazariy asoslanishi, milliy g`oya tushunchasi va uning milliy o`zlikni anglashga ta`siri, taraqqiyotning o`zbek modeli, g`oyalarni amalga oshirishning manaviy-mafkuraviy asoslari.

**Ishning ilmiy yangiligi:** Mazkur masalalar yuzasidan faylasuflar, siyosatshunoslar, adabiyotshunoslar, ma`naviyat masalalari bilan shug`ullanuvchi olimlar, boshqa mutaxassislar tomonidan ko`plab risolalar, maqolalar chopetilgan bo`lsada ushbu biniruv malakaviy ishida Milliy g`oya va milliy taraqqiyot, mamlakat millliy taraqqiyotida Milliy g`oyaning o`rni va axamiyati alohida o`rganiladi.

**Ishning amaliy ahamiyati:** Mavzuni o`rganish jaryonida ma`naviy madaniyat va milliy g`oyaga oid ko`plab ma`lumotlar to`planib, ular taxlil qilindi va umumlashtirildi. Keyingi tadqiqotlar davomida ulardan foydalanish mumkin.

**Tarkibiy tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan tashkil to`gan.

## **I-BOB. O`ZBEKISTONDA MILLIY G`OYANING ASOSIY TAMOYILLARINI SHAKLLANTIRILISHI.**

### **1.1. O`zbekiston res`ublikasi ‘rezidenti I.A Karimov tomonidan milliy g`oyaning ilmiy-nazariy asoslanishi.**

O`zbekiston ‘rezidenti Islom Karimovning 1993 yil a’rel oyida bir guruh atokli yozuvchi va olimlar bilan suhbat bilan milliy istiqlol g`oyasining yangi rivojlanish davrini boshlab berdi.

Asosiy masala mustaqillikni saqlab qolish, kelajak avlodlarga omon yetkazish, uning qadrini anglab, millat va xalq sifatida o`z qaddimizni ko`tarishimizda mafkuraviy omillardan, ma`naviy-ma`rifiy tadbirdardan to`g`ri va samarali foydalanish, yangi tarixiy voqelik — mustaqil taraqqiyot uchun xalqning asriy orzu-armonlari va intilishlarini aks ettiruvchi milliy g`oyani shakllantirishdan iborat edi. O`zbekiston ‘rezidentining ziyorolar oldiga qo`yan savollaridan maqsad ham shu edi: «O`zbekistonning milliy g`ururi nimadan iborat?

O`zbekning asosiy fazilatlari, asosiy xislatlari nimalarda namoyon bo`ladi?

Merosimizning asosiy qirralari, saboqlari nimada?

Yangi mafkuraning xususiyatlari bormi, kim bu dasturilamalni ishlab chiqadi?»<sup>1</sup>

Albatta, milliy g`oya xalqning tarixi, hayoti, ongi, madaniyati, urf-odatlari bilan bog`langan, ulardan ayri holda shakllanmaydi. Ammo shu bilan birga u etnografik tushuncha ham emas. Haqiqiy milliy g`oya doimo umuminsoniy mazmunga ega bo`ladi. Zero, milliylik umuminso-niylikning mavjudlik shaklidir. Binobarin, kelib chiqishi biror xalqqa tegishli bo`limgan, biror-bir milliy shaklda ifodalanmagan umuminsoniy g`oyaning o`zi yo`q. Umuminsoniy g`oya — bu tor mahalliychilikdan xoli bo`lgan, boshqa mintaqalar va xalklar uchun ham foydali xisoblangan haqiqiy milliy g`oyadir.

Islom Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida (1993 yil, 6 may) so`zlagan nutqida oddimizda turgan eng muhim masala bu —

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Ozbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.- T, «Ozbekiston», 1996. –B. 207-212.

milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir deya ta`kidladi, — «milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an`analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma`rifat tuyg`ularini ongimizga singdirishi lozim. Shu bilan birga mafkura xalqimizda o`zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli munosib o`rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog`i kerak»<sup>1</sup>.

«Tafakkur» jurnali bosh muharriri bilan muloqotda Islom Karimov muhim masalaga e`tiborni tortadi: milliy tariximiz, umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo`shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi o`rni va ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o`rganish zarurligi, shundagina milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasining hayotiyligi, uning mavsumiy shior emasligi va uni sun`iy ravishda o`ylab to`ish mum kin emasligi, aksincha, millat va xalq taraqqiyotining tarixini ham, bugunini ham yaxlit qamrab olishini ilmiy asoslash mumkinligini e`tirof etadi.

Islom Karimovning milliy g`oya va mafkuraning ma`naviy ildizlari haqidagi fikrlari tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbatida yanada rivojlantiriddi. O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanishi, tarixiy xotirasiz kelajak yo`kligi, tarix saboqlari doimo insonni hushyorlikka o`rgatishi alohida ta`kidlab o`tildi. O`zlikni anglash xususidaga fikrlar davlat rahbarining milliy istiqlol mafkurasi kontse`tsiyasining asosiy tamoyillariga bag`ishlab ilmiy-ijodiy jamoatchilik bilan uchrashuvida yanada teran mulohazalar bilan boyitilganini kuzatamiz: «Milliy mafkuraning yana bir muhim sharti — bu o`zlikni anglashdir. O`zlikni anglash deganda, men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib o`zimizga xos, o`zimizga mos jamiyat bar`o etishni tushunaman. Ma`naviyat, mafkura borasida chetdan, ko`r-ko`rona nusxa ko`chirib biron natijaga erishib bo`lmaydi»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I. A. Ozbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T, «Ozbekiston», 1996.-B. 203.

<sup>2</sup> Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoq.-T, «Ozbekiston», 1999.- 7-jild.

2000 yil a'relda Islom Karimov faylasuf, tarixchi, adabiyotshunos, siyosatshunos olimlar, taniqyai adiblar va jamoat tashkilotlari vakillari bilan Oqsaroy qarorgohida milliy mafkuraga bag`ishlab o`tkazilgan yig`ilishda e`tiborni mafkuraning quyidagi masalalariga qaratdi:

1. Milliy taraqqiyot masalasida har qanday davlat yoki jamiyat, albatta, o`z milliy g`oyasiga suyanishi va tayanishi kerak.

2. O`tish davridagi to`sqliar, qiyinchiliklar va xatolardan xalqimizni og`ishmay kelajak sari yetaklovchi, maqsad sari undovchi milliy mafkura zarurdir.

3. Shakllanayotgan yosh avlodni qanday g`oya va mafkura bilan tarbiyalash masalasi hal etilmog`i kerak.

4. Tarbiyaviy-axloqiy masalalarda, ma`naviy hayotda o`z yo`limizni yo`qotmaslik uchun ham, mafkuraviy bo`shliqqa yo`l qo`ymaslik uchun ham g`oya va mafkura kerak.

5. Milliy g`oya va mafkura xalqimizning o`zligini anglashiga, qadriyatlarni hurmat qilishga, milliy g`ururni his qilishiga xizmat qilmog`i zarur.

6. Milliy g`oya va mafkura xalqimizning o`tmish qad-riyatlarini hisobga olgan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, xalq manfaati yo`lida xizmat qilmog`i lozim.

7. Milliy g`oya hech qachon davlat mafkurasi darajasiga chiqmasligi kerak.

O`zbekiston Prezidentining «Fidokor» gazetasi muxbiri bilan «Donishmand xalqimning mustahkam irodasiga ishonaman»<sup>1</sup> deb nomlangan suhbatida esa milliy g`oya va milliy mafkura to`g`risidagi ta`rif hamda qarashlar umumlashtirilganini e`tirof etish joiz.

«Shuni alohida ta`kidlamoqchimanki, — deydi Islom Karimov «Milliy istiqdol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolsiga yozgan so`zboshisida, — milliy g`oya va milliy istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarni ma`naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. «Donishmand xalqimning mustahkam irodasiga ishonaman». «Fidokor» gazetasi, 2000, 8 iyun.

uchun eng asosiy maqsaddir»<sup>1</sup>.

Risolada milliy g`oya va mafkura tushunchalari, ularning xalq`ar va davlatlar tarixiga ta`siri, globallashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi sharoitda mafkuraning o`rni, O`zbekistonning o`z milliy istiqlyul goyasi bo`lishi zarurligi, uning asosiy tamoyillarini xalqimiz va avvalo yosh avlod qalbiga singdirish kabi masalalar muxtasar bayon etilgan.

Yuqorida ta`kidlanganidek, bahsli munosabatlar din va dunyoviylilik masalasida ham bildirilganda, Islom Karimov quyidagi tarzda odilona yo`lni ko`rsatdi: «Dunyoviylilik, ayrim aqida`arast kimsalarning da`vatlaridan farqli o`laroq, aslo dahriylik emas. Biz bunday noto`g`ri va g`arazli talqinlarga mutlaqo qarshimiz»<sup>2</sup>. Darhaqiqat, islam dini ma`naviyatimizning tub zamiriga singib ketganini inkor etib bo`lmaydi. Milliy istiqlol mafkurasida muqaddas dinimizning inson`arvarlik g`oyalari o`z ifodasini to`ishi zarur.

Dunyoviy va diniy qadriyatlar borasidagi fikrlar Islom Karimovning «YUksak ma`naviyat — yengilmas kuch» nomli asarida quyidagicha davom ettirnladi: «Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya`ni dunyoviy va diniy qadriyatlar o`rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to`g`ri tushuntirib berishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to`ldirmas ekan, bugungi kunning og`ir va murakkab savollariga to`laqonli javob to`ish oson bo`lmaydi.

Biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug`lab, shu bilan birga, dunyoviy hayotga ham qatiy ishonch bilan intilib yashagan taqdirdagina o`z ezgu maqsadlarimizga yeta olamiz»<sup>3</sup>.

Islom Karimovning «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin» nomi bilan «Tafakkur» jurnalida bildirgan fikr va xulosalari muallifning «Yuksak ma`naviyat — yengilmas kuch» nomli asarida har

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T, «O`zbekiston», 2000.

<sup>2</sup>Karimov I. A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. - T, «O`zbekiston» 2000 - 8-jild. B. 462—463.

<sup>3</sup> Karimov I. A. YUksak ma`naviyat - engilmas kuch.- T, «Ma`naviyat», 2008.-B. 96.

tomonlama rivojlantirilganini kuzatamiz.

Asarda mustaqillik yillari davlatimiz rahbarining ma`naviyat, milliy g`oya, mafkura, ta`lim-tarbiya masalalari bo`yicha olib borgan nazariy izlanishlari, mulohazalari, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilgan islohotlar tajribasi umumlashtirilgan, teran nazariy va amaliy xulosalar qilingan. «YUksak ma`naviyat — yengilmas kuch» asari milliy g`oya mohiyatini anglab olishda, uni milliy taraqqiyot masalalari bilan nazariy va amaliy bog`lay olishda ulkan metodologik ahamiyat kasb etdi. Milliy g`oya bilan bog`liq qaysi tushunchani, tamoyilni yoki masalani olmaylik, asarda ularning sodtsa va aniq javobini to`amiz. Xususan, g`oya va mafkurani sun`iy tarzda yaratib bo`lmasligi, u xalqning tarixiy orzusi, ajdodlardan avlodlarga o`tib, asrlar davomida e`zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma`naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, eng ezgu orzu va intilishi, g`urur va iftixori, or-nomus va ruhiy madadkori sifatida xalq bilan doimo birga yashab kelayotgan oliy maqsad, tarixiy orzu ekani ochib beriladi. SHuningdek, milliy g`oyaning va milliy mafkuraning bo`m-bo`s joyda `aydo bo`lmasligi, milliy g`oya etnik mansubligi, tili, dini va hokazolardan qat`i nazar, shu yurtda, shu vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning oljanob, ezgu niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan g`oya ekani kabi teran fikrlar milliy g`oyaning mazmun-mohiyatini, ijodiy-bunyodkorlik salohiyatini bilib olshida va to`g`ri talqin qilinishida katta ilmiy va metodologik ahamiyat kasb etdi.

«I Shuni alohida ta`kidlash kerakki, hayot sur`atlari beqiyos darajada tezlashayotgan bir davrda, mafkura loligonlari yadro loligonlaridan ham ko``roq kuchga ega bo`lib borayotgan zamonda asrlar sinovidan o`tgan boy ma`naviy qadriyatlarga tayanmoq oqilona yo`ldir. «Hammamiz bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor yosh avlodimiz ma`naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nima-larga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizni o`ylantirishi tabiiy»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. YUksak ma`naviyat — engilmas kuch.- T, «Ma`naviyat, 2008/- B.115

Muallif bu vazifani shu kunning eng dolzarb vazifasi desak, hech qanday xato bo`lmasligini e`tirof etadi. Zero, yosh avlod «erkinlik va demokratiyani olg`a siljitish», «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi, aslida esa, uzoqni ko`zlagan makkorona siyosat va maqsadlarga, oshkora va `inhona xatarli tahdidlarga faqat mustaxkam bilim, tafakkur erkinligi, buyuk maqsad va yuksak ma`naviyat bilangina qar`sh tura olishi mumkin.

Ajdodlardan meros bo`lib kelayotgan qadriyatlar tizimi umuminsoniy qadriyatlar, jahon mumtoz madaniy merosi bilan birgalikda yoshlarning barkamol inson bo`lib yetishishida samarali, ishonzhli kafolat bo`la oladi.

Islom Karimov yosh avlodni mafkuraviy tajovuzlardan himoya qilish haqida fikr yuritganda, faqat ajdodlar ma`naviy merosiga mahliyo bo`lib yurishning o`zi bilan uzoqqa borib bo`lmasligi haqida hayotiy va xolisona xulosalar qiladi. Kitobda yoshlar va milliy g`oya, milliy ma`naviyat masalalari keng qamrab olinishi, har qanday bir yoklamaliquidan xoliligi mamlakatimizda ilgari surilayotgan barkamol avlod, komil inson g`oyasining mut-tasil teran ma`no kasb etib borayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq o`zlikni anglash va anglatishda tarixiy xotira masalasiga alovida e`tibor qaratilmoqda. «YUksak ma`naviyat — yengilmas kuch» asarida tarixiy xotira borasida ham teran ilmiy-nazariy xulosalar berilgan. Kitobda, jumladan, Turkistonning uch xonlikka bo`linib ketishi va uning o`ta salbiy oqibatlari borasida achchiq haqiqatlar bayon etilgan: «...Yurtimiz rivoji hamma zamonlarda ham bir tekis kechmagan... Yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqtsiri va kelajagi haqida qayg`urish o`rniga, o`z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo`yib, jaholat va g`aflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi»<sup>1</sup>. Muallif e`tirof etganidek, hukmron kuchlarning uzoqni ko`rolmasligi, ma`naviy zaifligi oqibatida milliy ji`slik, yatona maqsadga intilish, milliy taraqqiyot g`oyasi — milliy o`zlikni anglash boy berilgani kabi tarixiy haqiqatlar bugun yoshlarimiz uchun saboq

bo`lishi kerak. Bu esa o`z navbatida, bir tomondan, milliy g`oya tarixi va tadrijiy rivojlanishini xolisona o`rganish zaruratini anglatadi, ikkinchi tomondan esa, tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish `allasida millat, xalq o`z ahilligi va birdamligani, milliy manfaatlar mushtarakligani himoya qilib, o`z umrini yashab bo`lgan aqidalarga bog`lanib qolmasligi uchun ogohlikka da`vat etadi.

«Yuksak ma`naviyat — yengilmas kuch» asarida milliy g`oyamizning, ma`naviyatimizning teran ma`naviy ildizlari «Avesto»dan boshlab xalq og`zaki ijodi — Al`omish, xalq maqollari, Amir Temur va temuriylar davridan bugungacha yashab kelayotgan ma`naviyatimiz tadriji va rivojlanishi saxifalaridan ibratli misollar keltirilgan. Asar milliy g`oyamizning teran tomirlarini o`rganishda nazariy va metodologik asos bo`lib xizmat qiladi.

Ma`lumki, milliy g`oya xalq orzu-intilishlari va taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, bir tomondan, mohiyatan barqarorligini, ikkinchi tomondan — o`zgaruvchanligini, nisbiyligini namoyon qiladi. Bunda tadrijiy rivojlanishning vorisiylik va o`zgaruvchanlik, an`anaviylik va zamonaviylik tamoyillari yuzaga chiqadi.

O`quvchi e`tiboriga havola etmoqchi bo`lganimiz asosiy fikrlar esa quyidagilardan iborat:

— milliy g`oya sun`iy ravishda o`ylab to`ilmaydi, u millatning hayoti, tarixi va taqtsiri bilan chambarchas bog`liq hoddha turli ifodaviy shakllarda doimo mavjud;

— milliy g`oya xalq bilan birga yashaydi, rivojlanadi, davr talablariga javoban o`zgaradi, sayqal to`ib, takomillashib boradi. Milliy g`oya tor doiradagi siyosiy masala yoxud etnografik tushuncha emas;

— milliy o`zlikni u yoki bu darajada anglash, milliy o`zlikni va umummanfaatlarni ifoda etuvchi konkret g`oyalari madaniy merosda, xususan, adabiy yodgorliklarda muayyan tarzda aks etishi muqarrar. SHu bois adabiy merosda xalqimizning turli tarixiy davrlarda o`z orzu-niyatlarini, yuksak maqsadlarini, manfaatlarini o`zida aks ettirgan g`oyalari bo`lgan. Bugun ularga biz milliy g`oyamizning teran ma`naviy ildizlari sifatida qarashimiz va o`rganishimiz

kerak.

Milliy g`oyaning fundamental tushuncha va tamoyillarining mohiyatan barqarorligida vorisiylik qonuniyati yaqqol namoyon bo`ladi. Ikkinchisi tomondan, milliy g`oya xalqning tub manfaatlari va maqsadlari bilan bog`likligi sababli, u har bir tarixiy davr xalq oddiga qo`ygan talablarni ifodalagan, ularga mos tarzda ba`zi bir mezonlarini, baholarini, tamoyillarini o`zgartirgani o`rganilgan. Vorisiylik bilan o`zgaruvchanlik milliy g`oyaning tadrijiy rivojlanish qonuniyati ekanini mumtoz adabiy merosda ko`rsatilgan.

**Milliy istiqlol g`oyasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari** Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan ta`limotdir. Milliy istiqlol g`oyasining mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Tarixiy xotirani uyg`otish, o`tmishdan saboq chiqarish, o`zlikni anglash mezoni.
2. Xalq maqsadlarini ifoda etib, jamiyat a`zolarini birlashtiruvchi g`oyaviy vazifani bajaradi.
3. Millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch e`tiborining manbaidir.
4. O`zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam vakillariga birday taalluqlidir.
5. Millat aholisi ongi va qalbida «O`zbekiston - yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.
6. Turli millat, qatlam, uning vakillari, siyosiy `artiya va ijtimoiy guruqlar mafkurasidan ustun turadigan yuksak fenomen - ijtimoiy hodisa mazmuniga egadir.
7. Biron-bir dunyoqarashni mutloqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, `artiya yoki guruh qo`lida siyosiy quroqga aylanmaslik.
8. Har qanday ilg`or g`oyani singdirish va har qanday yovuz g`oyaga qarshi javob bera olish.
9. Sub`ektivizm, valyuntorizm kabi illatlardan xoli va jamiyatimizning xolis fikriga tayanuvchi ob`ektiv mafkura bo`lish.

10. So`z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish<sup>1</sup>.

11. Davr o`zgarishlariga qarab, o`zi ifodalaydigan g`oya, manfaat, muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalaridan ijodiy foydalanish.

Milliy istiqlol g`oyasi ana shu qayd etilgan sifatlarga javob bergan taqdirdagina kutilayotgan maqsadlarga erishish mumkin. Ammo, milliy istiqlol g`oyasi o`z-o`zidan inson ongiga, tafakkuriga singib, ishonch va e`tiqodiga aylanib qolmaydi. Bunga har bir inson o`z hayoti davomida erishib boradi.

Milliy istiqlol g`oyasining mazmun-mohiyatini tushunchalari, shakllanish qonuniyatlari, namoyon bo`lish xususiyatlari, uni xalqimiz qalbiga singdirish yo`llari va usullari ushbu fanning mohiyatini belgilaydi. Uning tushuncha va kategoriyalari bir butun, yaxlit tizim shaklida namoyon bo`ladi. Milliy istiqlol g`oyasining fan sifatida e`tirof etilishi uning o`ziga xos **«redmeti, ob`ekti, maqsad va vazifalari mavjudligini anglatadi»**.

**Birinchidan**, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori «Milliy istiqlol g`oyasi» fanining ham muayyan bilimlar tizimi, o`ziga xos mavzulari, tushunchalari, qonun va kategoriyalari mavjud.

**Ikkinchidan**, uning boshqa fanlar qatori o`z **«redmeti, ob`ekti, maqsad va vazifalari bor»**.

**Milliy istiqlol g`oyasi** – mustaqillikni qo`lga kiritish, uni mustahkamlash, O`zbekistonning dunyo hamjamiyatida o`ziga xos nufuzga ega bo`lishi uchun imkon yaratadigan xalqni, millatni ji`slashtirib turadigan maqsadlar, manfaatlar majmuidir. Milliy istiqlol g`oyasi fanining **«redmetini faqat «g`oya va mafkura» tushunchalaridan iborat deb o`ylamaslik kerak. Bu fanning «redmetini hozirgi zamondagi mafkuraviy jarayonlar, uning ma`no-mazmunidagi o`ziga xos xususiyatlari, ta`sir etish qonuniyatlari, ma`lum bir makonda va davrda namoyon bo`lish xususiyatlari, uni ko`` millatli davlatimiz fuqarolarining ongi va qalbiga singdirish yo`llari hamda uslublarini aniqlash ham tashkil etadi.»**

---

<sup>1</sup> Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g`oyasi: O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. –T, Akademiya, 2005.-B. 8-11.

Bu jarayon, birinchidan, milliy g`oyaning fan talablari asosida, bilim va tajriba tizimi orqali kishilarning ongi va tafakkuri, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari milliy-ma`naviy merosga munosabatning jamiyat hayotida namoyon bo`lish xususiyatlari bilan bog`liq. Ikkinchidan, milliy istiqlol g`oyasining shakllanishi kishilar (xalq, millat, avlodlar) amaliy faoliyatida hamda o`zaro munosabatlarida ishonch va e`tiqodga aylanishining namoyon bo`lishi yagona tartib me`yorlarga osonlikcha tushavermaydi.

Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g`oyalar muhim o`rin tutadi. SHu ma`noda, insoniyat tarixi - g`oyalar tarixidir.

Xo`sh, **g`oya nima**, nega unga bu qadar katta e`tibor va ahamiyat beriladi? Ma`lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o`z manfaatlari, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko`zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma`lum bir mafkuraga tayanadi.

Umuman, g`oya - bu tadqiqot maqsadini, uning yo`nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir. Foya o`z tabiatiga ko`ra biror fikrdir, u tadqiqotchi miyasida uning amaliy va nazariy faoliyati asosida `aydo bo`lib, borliqning to`g`ri yoki xato in`ikosidir.

Ilmiy bilishda g`oya muhim rol o`ynaydi. G`oyalar tabiatiga ko`ra: a) ilmiy g`oyalar; b) badiiy g`oyalarga bo`linadi. G`oyalar xarakteriga ko`ra: a) borliqning to`g`ri, real in`ikosidan iborat g`oyalar, b) borliqning xato yoki fantastik in`ikosidan iborat g`oyalar. Shuningdek, g`oyalar: a) `rogressiv va b) reaktsion g`oyalarga ham bo`linadi. `rogressiv g`oyalar ilmiy bilishni rivojlantirishga xizmat qilsa, reaktsion g`oyalar unga to`sinqinlik qiladi.

Ma`lumki, inson o`zining aql-zakovati, iymon-e`tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.

**Inson** - ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikki katta qismga bo`lish mumkin: birinchisi, insonning ruhiy olami: ikkinchisi - fikriy olam, ya`ni tafakkur olamidir. Ruhiy olam (bu sohani ruhshunoslik ilmi - `sixologiya tadqiq etadi) o`z tarkibiga sezgilar, idrok, tasavvur, kechinma, his-hayajon, diqqat, xotira va

boshqalarni qamrab oladi. Tafakkurning mantiqiy shakllariga tushuncha, hukm va xulosa kiradi (bularni logika, ya`ni mantiq fani o`rganadi).

Falsafaning oltin qoidalaridan biri - til va tafakkur birligidir. Tilning eng birlamchi mahsuli so`z bo`lgani kabi, tafakkurning dastlabki shakli - tushunchadir. Tushunchalar bir yoki bir necha so`zlar bilan ifoda-lanadi; ammo har qanday so`z ham tushuncha bo`la olmaydi. So`zlar vositasida anglatilgan fikr ga` deb atalishini biz boshlang`ich sinflardanoq bil-ganmiz.

Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g`oyalar va ta`limotlar yaratadi. Binobarin, g`oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g`oya bo`la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta`sirchan, zalvorli fikrlargina g`oya bo`la olishi mumkin.

G`oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda `aydo bo`lsa-da, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. Foya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta`sir ko`rsatgan nazariya, ta`limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste`dod va teran tafakkur egalari mislsiz zahmat chekkanini ko`ramiz. Sokrat va `laton, Konfutsiy va Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy va Maxatma Gandhi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig`idir.

**Mafkura tushunchasi:** Jamiyat mafkurasiz bo`lmaydi. Chunki har bir davlat mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo`lini tanlab olar ekan, o`z taraqqiyot dasturi, qarashi, amalga oshirish tamoyillari, kontse`tsiyasiga ega bo`lmasdan o`z istiqbolini aniq ko`ra olmaydi.

Har qanday nazariya yoki ta`limot bir tizimga solingan g`oyalar majmuidan iborat bo`ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e`tiqodning asosini ham g`oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sind va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g`oyalarda ifoda etiladi.

O`z oldiga qo`ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo`llar va vositalar bilan erishmoqchi bo`layotgani haqidagi g`oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

Mafkura (arab. - fikrlar majmui, nuqai nazarlar, e`tiqodlar tizimi) – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat, jamiyat yoki davlatning manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma`naviy tamoyillarini ifoda etadigan g`oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o`tmishi, bugungi kuni va istiqboli o`z ifodasini to`adi.

Mafkura (arab. «mafcura» – fikrlar, nuqtai nazarlar va e`tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g`oyalar majmui.

Mafkura keng ma`noda: ijtimoiy borliqning jamiyat hayotining ma`naviy-siyosiy in`ikosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning Amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo`lib xizmat qilishidir.

Milliy istiqolo mafkurasi – bu istiqlolga erishilgandan keyin shakllangan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy hayotini va olib borilayotgan ham ichki ham tashqi siyosatni himoya qilib qo`llab-quvvatlaydigan qarashlar, nazariyalar majmuidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlam-larning mafkurasi turlicha bo`lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinfiy qutblashuv kuchaygan, sinfiy kurash avj olgan (yoki sun`iy ravishda keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o`ta siyosiylashadi, aholini o`zaro qarama-qarshi qilib qo`yadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat bar`o etishni ko`zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini ji`sashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo`lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

O`zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi aynan jamiyatni ji`slashtirishga, buyuk kelajak yo`lida yakdil harakat qilishga, bar`o etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o`ziga xos o`rni bo`lishiga erishishga safarbar etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraga shunday ta`rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko`zlagan va uning dunyodagi o`rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o`rtasida o`ziga xos ko``rik bo`lishga qodir g`oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman»<sup>1</sup>. Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo`li va maqsadlarini aniq-ravshan charog`on etadigan mayoqdir.

Insoniyat tarixi mobaynida turli shakldagi juda ko`plab mafkuralar yaratilgan, bahisob ijtimoiy-siyosiy kuchlar o`z g`oyalari va ta`limotlari bilan maydonga chiqqan, maqsad va niyatlariga yetishmoq uchun harakat qilgan. Biz har qanday mafkurani g`oyalalar tizimi sifatida talqin qilar ekanmiz, shuni unutmaslik kerakki, biror bir mafkuraning mohiyatini anglab yetish uchun faqat uning tarkibidagi g`oyalarni tahlil qilishning o`zi yetarli emas. O`tmishda turli kuchlar va guruhlar o`z g`arazli niyatlariga erishish, asl maqsadlarini yashirish uchun yuksak va jozibali g`oyalardan foydalangan. Eng yovuz bosqinchi va eng razil guruhlar ham o`z kirdikorlarini ezgu g`oyalari bilan niqoblashga uringan.

Demak, mafkuraning mohiyati faqat uning asosiy g`oyalari vositasida emas, shu g`oyalarga erishish usullari va vositalari, umume`tirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyat omma manfaatlariga mosligi orqali ham namoyon bo`ladi. O`zining mudhish talab-ehtiyojlari va yovuz niyatlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirishni ko`zlab harakat etuvchi mafkuralar halokatga mahkumdir.

Mafkuralar, ma`no-mohiyatiga ko`ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta`limotlar asosida yaratiladi. Xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar o`z

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. - T. 7. –T, «O`zbekiston», 1999.-B. 89

mafkuralarini yaratishda siyosiy g`oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

## **1.2. Milliy g`oya tushunchasi va uning milliy o`zlikni anglashga ta`siri.**

G`oya va mafkurada xalqning hayotiy ehtiyojlari, intilishlari va maqsadlari o`z ifodasini to`adi. O`zbek xalqi bar`o etayotgan jamiyatning maqsad va mohiyati ham muxtasar tarzda milliy istiqlol g`oyasida ifodalangan.

Inson`arvarlik bilan yo`g`rilgan, taraqqiyotga xizmat qiladigan bunyodkor g`oyalar qachon, qaysi mamlakatda tug`ilmasin, tub moxiyatiga ko`ra, umuminsoniylik kasb etadi. Shu sababdan haqiqiy bunyodkor g`oyalar oldiga qo`ygan maqsad va vazifalari, ifoda tili va shakli bo`yicha milliy ko`rinish olsada, mazmun-mohiyati bo`yicha umuminsoniy g`oyalarni boyitadi.

G`oya jamiyatning ma`naviy barqarorligini ta`minlash jihatidan ham muhim ahamiyatta ega. U shunday muhitni yaratish barobarida fuqarolarni yakdil, yuksak ma`naviy mo`ljallar tevaragida yaqinlashtirib, ba`zan esa chigal iqqisodiy, siyosiy vaziyatlarni yengib o`tishda tayanch bo`ladi. Inson tuyg`ulariga ulug`vorlik baxsh etgan g`oya uning ruhiy kamolotiga xizmat qilishi shubhasiz. Ulug` maqsad va vatan`arvarlik tuyg`usiga ega insonni ma`lum darajada ma`nan komil inson desak, yanglishmaymiz. Bu esa, g`oyaning inson qadr-qimmatini ulug`lashi yo`li bilangina uni buyuk ishlarga safarbar etishi mumkinligini anglatadi. Islom Karimovning «Ma`naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak»<sup>1</sup>, — degan fikri, nafaqat ma`naviyat, balki inson bilan bog`liq barcha sohalar uchun ham birdek taalluqlidir.

**Mohiyatga yanada kengroq miqyosda qaraydigan bo`lsak, e`tirof etish kerakki, umuminsoniy g`oyaning ma`naviy e`tiqodga aylanishi va keng tarqalishi ko`plab xalqlarni yagona mushtarak mo`ljallar asosida birlashtiradi, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.** Xuddi shunday umummilliyl g`oya turli ijtimoiy qatlam va guruxlarni, turli hududlarda yashovchi aholini birlashtiradi.

Fikrimizcha, g`oyaning yuksak ma`naviy e`tiqodga aylanishini tahlil etish,

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. YUksak ma`naviyat — engilmas kuch.-T, «Ma`naviyat», 2008.B- 29

g`oya va siyosat masalalarining munosabatiga ham oydinlik kiritadi. Ma`lumki, g`oyani mavjud siyosatning xizmatkori yoki muxolifi degan qarash-lar mavjud. Bu esa faqat siyosiy g`oyalarga taalluq`i. Haqiqatan, siyosiy g`oyalar mavjud tuzumni mustahkamlashga yoki uni isloh qilishga yoki tubdan o`zgartirishga qaratilgan bo`ladi. Shu bois siyosiy g`oyalar o`rtasida tez-tez bahslar, hatto keskin tortishuvlar, kurashlar bo`lib turadi. Ammo g`oyalarning fanga, tabiiy-ilmiy, falsafiy, badiiy, axloqiy va shu kabi inson ijodiy va ijtimoiy faoliyatining boshqa sohalariga taalluqlilari ham bor. Shu bois g`oyaga faqat siyosat nuqtai nazaridan yondashmaslik lozim, Biz xalq sifatida, soxta maqsadlarni zo`ravonlarcha singdirishga uringan istibdod mafkurasi tuzumini boshdan kechirdik. Minbar va shiorlardagina joziba kasb etishi mumkin bo`lgan qator yaltiroq g`oyalarning soxta ta`sirida yashab ham ko`rdik. Sinfiylikni bayroq qilib olgan, tabiatan inson intilishlari bilan hisoblashmaydigan g`oya taqdiri oqibatda qanday tugashini ham bildik. Tarixning bu saboqlaridan chiqargan xulosamiz esa O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida o`z ifodasini to`di: «Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatalishi mumkin emas»<sup>1</sup>.

G`oyaning insonga ta`siri haqida so`z borar ekan, uning inson qalbiga, botiniga yo`li masalasi yuzaga chiqadi. Sharq tafakkur olamida «botin» deb atalgan tushuncha inson iymoni, e`tiqodi, dunyoqarashi, aqli va ko`ngli bilan bog`liq. Muayyan g`oyaning inson iymoni darajasiga ko`tarilishini «Avesto», «Tavrot», «Injil», «Qur`on» va boshqa muqaddas kitoblardagi ta`limotlar asosida kuzatishimiz mumkin. Ulardagi adolat, insof, ezgulik, halollik, **erk, mehr-oqibat, ilm`arvarlik** kabi qator muqaddas g`oyalar o`z davrida ular targ`ib etgan dinga, ta`limotga ishongan xalqlarning iymon-e`tiqodiga, hayotining mezoni va oliv **maqsadiga aylangan**. Ular hamon o`z ahamiyatini yo`qotmagan, chunki umuminsoniy qadriyatlar `oydevorini tashkil etadi. Bu g`oyalar o`z davrining murakkab muammolariga aynan inson qalbiga yaqinlik asosida oqilona yechim to`a olgan. Xalklar esa o`z og`zaki ijodi namunalari bilan bunday g`oyalarga

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. 2015.- B. 5.

hamisha zamonaviylik bag`ishlab kelgan. SHuningdek, urf-odatlar, udumlar, bayramlar shaklida «moddiylashgan» g`oyalar ham oz emas. Umuman, o`zida biror ahamiyatli ezgu g`oyani ifoda etmagan rivoyat, maqol, o`git, bayram, marosim, tantana yo`q hisobi. Shuning uchun ham ular inson uchun qadri baland, ruhlantiruvchi, zarur xulosalar beruvchi ma`naviy tayanch va kuchga ega bo`lgan.

Insonning yuksak intilishlariga monand g`oyalargina san`atning barcha shakllarida o`z ifodasini to`adi va shu tariqa ajdodlardan avlodlarga ma`naviy meros bo`lib o`taveradi. San`at yuksak obrazlilik orqali g`oyalarga **hayotiy vujud, hissiy konkretlilik, ta`sirchanlik bag`ishlaydi, uning yangi qirralarini ochadi**. SHu tariqa g`oyaning vaqtanchalik yoki mavsumiy hodisa emasligi to`g`risidagi fikrga kelamiz. Buni o`tmish va bugungi kunning buyuk ijodkorlari, masalan, Alisher Navoiy dahosini millat faxriga aylantirgan xalq`arvarlik g`oyasi yoki davrimizning buyuk adibi CHingiz Aytmatov ijodidagi inson`arvarlik g`oyalari qanchalik ta`sirchanlik qudrati kasb etgani misolida kuzatishimiz mumkin. Demak, g`oya sun`iy o`ylab to`ilgan tushuncha bo`lishi mumkin emas, u tarixiy zarurat tufayli yuzaga keladi. Xalqning, jamiyatning, millatning yuksak intilishlarini, tarixiy orzusini o`zida ifoda etadi.

Masalaning yana bir muhim jihatini nazardan qochirmaslik kerak: bu g`oyaviy bo`shliq tufayli vujudga kelgan bugungi insonning dunyoqarashi va ijtimoiy mo`ljaldaridagi ba`zi kemtik yoki xato jihatlar. Bu holatga real yondashilmas ekan, barcha tarbiyaviy harakatlarimiz natijasiz bo`lib qolishi yoxud biz kutgan natijani bermasligi mumkin. Sir emaski, mustaqillikning dastlabki yillarida mustabid tuzumning qadriyatlar tizimi tanqidiy qayta baholanishi, vulgar ateistik siyosatdan voz kechilib, madaniy merosga, **Vatan tarixiga munosabat tubdan o`zgarishi jarayonida ayrim masalalarda o`ziga xos g`oyaviy bo`shliq `aydo bo`lgan edi**. Chunki yangi qadriyatlar tizimi birdaniga tayyor va mukammal holda vujudga kelmaydi. Bu murakkab jarayon ancha vaqg talab qiladi va ma`lum ziddiyatlarni boshdan kechiradi. Natijada diniy e`tiqod, demokratiya va inson huquqlari masalalarida ba`zi ichki va tashqi muxolif kuchlar o`zlarining g`arazli maqsadlarini ko`zlab soxta, buzg`unchi g`oyalar yordamida aholining bir qismini,

ayniqsa, tajribasiz yoshlarni chalg`itishga urindi. Bunday g`oyalarning ildiz otishiga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, xalqni umumiy milliy g`oya atrofida birlashtirish dolzarb vazifa si-fatida yuzaga chiqtsi. Milliy g`oya zaruratining muhim tomonlaridan biri ham buzg`unchi g`oyalarga qarshi turish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish va milliy konsolidatsiyani mustahkamlashdir. **Halgacha ayrim fuqarolar tafakkurida tamoman isloh etilmagan qarashlar ham yo`q emas.** O`zini ulug`vor maqsadlardan begona tutish, kasb g`ururining so`nikyaigi, ijtimoiy `assivlik, loqaydlik, o`zida shaxs sifatlarini takomillashtirishga befarqlik, fikr tobeligi va hokazolar shular jumlasidandir, Bular aslida qaramlikka asoslangan mafkuraning qoldiq illatlari, Jamiatdagi, aholi ongidagi qaysi bir kemtik jihatni alohida olib o`rganmaylik, o`sha sohadagi tarbiya va amali-yotda keng ma`nodagi bunyodkorlik yetishmasligining guvohi bo`lamiz. Demak, milliy istiqlol g`oyasi millatning xalq sifatidagi zamonaviy tafakkur tajribasini ham yuzaga chiqaradi; tobora teran mo`ljallarga yo`naltiradi.

Milliy istiqlol g`oyasining jamiyat oldiga qo`yayotgan dolzarb vazifalari «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» kitobida belgilab olindi. Biroq biz milliy istiklol g`oyasini qotib qolgan andoza, deb qabul qilmasligimiz lozim<sup>1</sup>. Bu jarayon mamlakatning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va zamon talablari bilan uzlusiz takomillashib, boyib boradi. Ayni `aytda, jamiyatimiz hayotining barcha yo`nalishlari va sohalarini erkinlashtirish va manfaatlar uyg`unligiga erishishga, ong va shuurni tazyiqdan, qullikdan qutultirishga<sup>2</sup> ulkan ahamiyat berilishi bejiz emas. **Bu jamiyatning yangi sifat xolatiga o`tishi, tom ma`nodagi tafakkur erkinligiga asoslanishini anglatadi.**

Milliy istiqlol g`oyasi bilan komil inson masalasi ham uzviy bog`liq. Yosh avlod tarbiyasi mamlakat rivojlanishining real talablariga mos yondashuvni, o`ziga xos anqlikni taqozo etmoqda. Bu anqlikda bizning mil-lat va xalq sifatvdagi zamonaviy o`zligimizni antlash darajamiz va zamonaviy taraqqiyot talablari taqozo etadigan milliy tafakkurimiz ifodalaniishi kerak. Modomiki, biz qurmoqchi bo`lgan

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T, «O`zbekiston», 2000.-B.26.

<sup>2</sup> Karimov I.A. YUksak ma`naviyat — engilmas kuch.- T., 2008.-B.72.

va qurayotgan kelajagi buyuk O`zbekistonning taqdiri komil inson ideali bilan bog`liq ekan, biz uni kelajak talablaridan, aniqrog`i, keng ko`lamdagi insoniyat ertasi talablaridan ajratib talqin eta olmaymiz. Komil inson xususida qanchalik boy ilmiy-ijodiy merosga ega bo`lmaylik, uni o`tmishdan nusxa ko`chirib shakllantirib bo`lmaydi. Qolaversa, har bir tarixiy davr komil insonga o`zining aniq talablariniqo`yadi. Aziziddin Nasafiy yoki uning zamondoshlari ideallaridan kelib chiqib komil insonga qo`yiladigan talablardagi umuminsoniy jihatlar, bugun ham ahamiyatini yo`qotmagan bo`lsa-da, ular XXI asr kishisi uchun juda kamlik va ma`naviy jihatdan torlik qiladi. Ba`zi jihatlari esa tarixan eskirgan, zamonaviy hayotga unchalik mos emas. Masalan, komil inson dunyoqarashi faqat islom e`tiqodiga asoslanishi lozimligi yoki insonning ba`zi zarur ehtiyojlari maksimal chegaralanishi (nafsga aylanmasligi uchun) va shu kabilar. Biroq bugungi mutaraqqiy G`arb xalqlari talqin qilganidek, individualizmni ulug`lash g`oyasiga taqlidan yo`l tutish ham to`g`ri emas. Insonning individual intilishlarini hurmat qilgan holda, uni jamoaviylikka, o`zga individlar manfaatiga qarama-qarshi qo`yish yaramaydi. SHuningdek, bu degani, biz yuqoridagi ikki nuqtai nazar bilan ham mutlaqo hisoblashmaymiz, degan ma`noni anglatmaydi. Har ikkala qarashlardan oqilona, zamonga mos jihatlarni olamiz.

Jamiyatda inson qadri tushunchasi ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, inson boqimanda, tobe qarashlar sirtmog`idan xalos bo`lib, o`z qadrini, avvalambor, mehnatda, xalq bilan mushtaraklikda to`ishini, faoliyati va taqdiri uchun o`zi mas`ul ekanlishni teran idrok etishi lozim. Bu unga muhim bir qarashni, ya`ni jamiyat insonga begona muhit emasligini anglashga imkon beradi. Jamiyat va inson munosabatlari uyg`unligini taqozo etadigan bu kabi qarash bugungi zamonaviy jamiyatshu-noslikni eng ko`` qiziqgiradigan masalalardan biridir. CHunki insonning o`z qadrini o`zi belgilash mas`uliyati unda eng yuksak goyalarni izlashga, ularni o`z e`tiqodiga aylantirishga rag`bat uyg`otadi.

Fikran qaram, boqimandalik kayfiyatidagi odam g`oyaviy jihatdan beqaror, befarq yoki faolligi samarasiz, xayoliy, xatolarga moyil kishidir. U ma`lum darajada boshqalar qo`lidagi qurolga aylanishi mumkin. Milliy istiqlol g`oyasi esa,

bunday kimsalarni yaratuvchi shart-sharoitlarni hayotimizdan yo`qotishga, ijtimoiy jarayonlarning inson tarbiyasiga ijobiy ta`sirini kuchaytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, inson qadri jayamiyatda inson qay darajada o`zining ijodkorligi, yaratuvchilik saloxiyatini erkin yuzaga chiqara olishi, o`zini shaxs sifatida namoyon qila olishi imkoniyatlari bilan belgilanadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatvda faqat jamiyatda, faqat jamoasi, xalqi orasida erkinlikka erishadi, qadr-qimmatini to`adi.

Xullas, milliy istiqyaol g`oyasining asosiy maqsadi va tayanchi inson, uning qalbi va tafakkuridir. Istiqlol g`oyalari inson qalbi va qadrini ulug`lash yo`li bilangina uning e`tiqodidan o`rin oladi. Jamiyat fuqarolarni ulug`vor intilishlar, xususan, «SHu aziz Vatan — barchamizniki» g`oyasi atrofida yaqinlashtiradi. Turmush farovonligi va inson erkinligining o`sishiga xizmat qiladi. Inson`arvarlik, taraqqiy`arvarlik, xalq`arvarlik, vatan`arvarlik g`oyalari jamiyat fuqarolarining e`tiqodiga aylanadi. Jamiyatda sog`lom ma`naviy ehtiyoj shakllari kengaya boradi. Fan, adabiyot, san`at va madaniyatning ahamiyati yanada ortadi.

G`oya mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g`oyalari odatda alohida olingen shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlam-lariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo`yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g`oyalari ta`sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g`oyalarni o`z e`tiqodiga singdiradi, o`z navbatida yangi g`oyalarni yaratadi va targ`ib etadi.

Har bir narsaning o`z ibtidosi va intihosi bo`ladi. Foyalar ham o`z «umri»ga ega. Ular ham ma`lum makonda va zamonda `aydo bo`lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo`shishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, o`z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yo`qotgach, tarixiy xotiraga aylanishi ham mumkin. Foyaga ta`rif berish uchun uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarini sanab o`tish lozim bo`ladi. Foyaning eng muhim xususiyati - insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, g`oya deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo`lgan, ruhiyatga kuchli ta`sir o`tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad-muddao sari yetaklaydigan ulug`vor fikrga aytildi.

G`oyalarning turlari. Tafakkurning mahsuli sifatida g`oya tevarak olamni o`rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari - ilm-fan, din, falsafa, san`at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq - muayyan bir g`oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivoj-lantiradi. Ma`lum ma`noda aytish mumkinki, har bir ong sohasining o`z g`oyalari mavjud bo`ladi.

Mazmuni-mohiyatiga ko`ra namoyon bo`lish shakliga qarab, g`oyalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-siyosiy g`oyalari;
- siyosiy g`oyalari;
- ilmiy g`oyalari;
- bunyodkor g`oyalari;
- buzg`unchi g`oyalari;
- diniy g`oyalari;
- falsafiy g`oyalari;
- badiiy g`oyalari;
- milliy g`oyalari;
- umuminsoniy g`oyalari va hokazo.

**Ijtimoiy-siyosiy g`oyalari** har bir xalq va umuman bashariyatning orzu- umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot vaadolatli tuzumni tarannum etadi. Ozodlik va mustaqillik,adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va inson`arvarlik g`oyalari shular jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o`lmas g`oyalari xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag`ishlab, ularni o`z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

**Ilmiy g`oyalari** - fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida `aydo bo`ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari (rantsi`lari), ustuvor qoidalarini (ostulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir. **Ilmiy g`oyalari**

- ilm-fan sohasida biron bir sensatsion yangilikni ilgari surish orqali uni hayotga tatbiq etish yo`lidagi urinishlar.

Foyalarning «hayoti» ularning `aydo bo`lishi, rivojlanishi, boshqa g`oyalar bilan o`zaro munosabati, kurashi va nihoyat, eskirgan g`oyalarning yangilari bilan almashinishi, ayniqsa, ilmiy g`oyalar misolida yaqqol namoyon bo`ladi.

Qadimgi yunon faylasuflari tabiiy jismlarning eng kichik, bo`linmaydigan zarrasi, deb «atom» tushunchasini kiritgan edilar. `tolemey-Aristoteldan tortib, o`rta asr Ulug`bek astronomiyasigacha dunyoning markazi Yer deb hisoblab kelganlar; Yevklid geometriyasi, Nyuton mexanikasi, Darwin ta`limoti ham o`z davrining eng ilg`or ilmiy g`oyalariga asoslangan edi.

Ilm-fan taraqqiyoti atomning bo`linishini, koinot markazi Yer emasligini ham ishonchli dalillar bilan isbotladi; kvant mexanikasi, irsiyat nazariyasi va boshqa ko`plab kashfiyotlar qilindi.

Dunyoga A.Eynshteyn, N.Bor, F.Rezerford, M.S.Kyuri va boshqalarning nomlarini mashhur qilgan yadro fizikasi sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy g`oyalar asosiga qurilgan. XX asrda insoniyat nihoyatda ko`` ilmiy g`oyalarni amaliyotga aylantirdi. Kosmik raketalar, kom`yuter va uyali telefonlar, televiedenie va boshqa sohalardagi yutuqlar bunga yorqin misol bo`ladi.

Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyot tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g`oyalar bilan o`rin almashaveradi.

**Buzg`unchilik g`oyalari** esa xalqlar boshiga so`ngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan ko`plab misollar keltirish mumkin. O`rta asrlardagi salib yurishlari, diniy fanatizm va ateizm, fashizm va bolshevizmga asos bo`lgan g`ayriinsoniy g`oyalar shular jumlasidandir.

YOvuz g`oya va mafkuralarning eng ko`` tarqalgan shakli: **aqida`arastlikdir**. Bunday mafkuralar muayyan davrlarda Farbda ham, SHarqda ham hukmronlik qilgan. Bu ijtimoiy illat insoniyat XXI asrga qadam qo`ygan hozirgi davrda ham dunyodagi tinchlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda.

Aqida`arastlik, qanday shaklda bo`lmashin, hamma zamonlarda ham jamiyat uchun birdek xatarlidir.

O`rta asrlarda Farbdagi aqida`arastlik mafkurasi bo`lgan inkvizitsiya cherkovning mutlaq hukmronligini o`rnatib, hur fikr rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga to`sinq bo`ldi. Galiley va Ko`ernik kabi yuzlab buyuk aql-zakovat sohiblari ana shunday aqida`arastlik ta`qibiga uchraganlar, Jordano Bruno ilmiy qarashlari uchun jaholat qurboni bo`lgan.

SHarqda esa Imom Buxoriy, Ibn Sino singari buyuk allomalar ham turli tazyiqlarga duchor bo`lganlar. Mansur Xalloj, Nasimiy, Boborahim Mashrab singari hur fikrli zotlar esa qatl etilgan.

Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg`or g`oyalar tug`ilaveradi. Buzg`unchilik g`oyalarining vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo`ladi. SHunday ekan, ya`ni doimo hushyor va ogoh bo`lib yashamoq hayotning asosiy zarurati bo`lib qolaveradi.

Demak, falsafada ilmiy bilishning asosiy shakllariga:

- ilmiy g`oya;
- muammo;
- gi`oteza;
- nazariya;
- ilmiy oldindan ko`rishlar tashkil qiladi;

**Diniy g`oyalar** deb, har bir diniy ta`limot va oqimning asosini, diniy iymon-e`tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytildi. **Diniy g`oya va mafkuralar** - insoniyat tafakkurining oddiylikdan murakkablikka qarab intilishida dunyoni, dunyo ichra o`zlikni anglashga qaratilgan diniy (ya`ni iymon-e`tiqodga asoslangan) qarashlar tizimi.

Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to`g`risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko`ra, jon ko`chib yuradi, bu hayotda u insonda bo`lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o`tishi mumkin.

Ilohiy zotlar haqidagi fikrga tayanadigan **loliteizm** dinlari vaqtin kelib **monoteistik** - yakkaxudolik g`oyasi asosidagi dinlarga o`z o`rnini bo`shatib

bergan. YAkkaxudolik g`oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa jahon dinlari - xristianlik va islomda o`z ifodasini yaqqol to`gan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g`oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

**Falsafiy g`oyalar** har bir falsafiy ta`limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to`g`risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o`rab turgan dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to``langan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma`no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi.

Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g`oyalar yaratganlar. (Siz bular bilan falsafa tarixini o`rganish `aytida bat afsil tanishgansiz). Ammo falsafiy g`oyalar haqida ga` ketganda, jahon falsafiy fikri rivojiga beqiyos hissa qo`shtan o`zbek mutafakkirlari yaratgan merosni yodga olmaslik mumkin emas.

Forobiyning fozil shahar to`g`risidagi, tasavvuf daholarining komil inson haqidagi, Ibn Sinoning tana va ruh munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy g`oyalarning yorqin namunasidir.

**Badiiy g`oyalar** - adabiyot va san`at asarining asosiy ma`no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko`zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o`quvchida muayyan taassurot uyg`otadi. Abadiy qahramonlarni sevish, ularga ergashish hollari ham ana shu asosda ro`y beradi.

Badiiy ta`sir vositalari juda katta kuchga ega. Inson va jamiyat ongini o`zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta`sir o`tkazishda, odamlarni harakat va junbushga keltirishda badiiy adabiyot va san`atning ahamiyati beqiyosdir. Milliy istiqlol g`oyasini targ`ib etish, xalqning ongi va qalbiga singdirishda ham bular muhim vosita bo`lib xizmat qiladi.

**Milliy g`oya** xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o`z oldiga qo`ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g`oyadir.

**Milliy g`oya** – u yoki bu millat, xalq, elatning milliy an`analarini, turmush tarzini va tanlab olgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy tizimni va umuman milliy manfaatlarni himoya qiladigan, qo`llab-quvvatlaydigan, ularni mustahkamlash uchun ko`maklashadigan qarashlar majmuidan iborat. O`z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga yetishning o`ziga mos yo`llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo`nalishlar bilan barcha g`oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo`lgan g`oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan «Vatan ravnaqi», «YUrt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik», «Millatlararo hamjihatlik», «Diniy bag`rikenglik» kabi g`oyalar ana shunday umummiliy g`oyalar qatoriga kiradi.

**O`zbek milliy g`oyasi** - o`zbek xalqi milliy mafkurasingning g`oyalari umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi. Bu g`oyalar yer yuzidagi barcha tinchliksevar, ezgulikka intiluvchi xalqlar va millatlar, davlatlar qabul qiladilar.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda 2 kuch: 1) bunyodkorlik va 2) buzg`unchilik g`oyalari hamisha o`zaro kurashadi. **Bunyodkorlik g`oya** insonni ulug`laydi, uning ruhiga qanot bag`ishlaydi. Sohibqiron Amir Temurning `arovanda yurtni, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g`oyalar asos bo`lgan.

**Ozodlik g`oyasi** - mazlumlarni o`z erki uchun kurashga chorlaydigan, qullik va qaramlikning har qanday ko`rinishini inkor etadigan g`oyadir.

**Mustaqillik g`oyasi** - eng ulug` va ezgu g`oya. Har bir xalq istiqlol tufayli o`ziga yot va begona tuzumdan, ijtimoiy tazyiqlardan xalos bo`ladi, o`z salohiyatini to`la-to`kis ishga solish, o`zi istagan va o`zi tanlagan yo`ldan borish imkoniyatini qo`lga kiritadi.

**Adolat va haqqoniyat g`oyalari** - insonning tabiatini va ijtimoiy tuzumning mohiyatini belgilaydigan, qudratli kuchga ega bo`lgan g`oyalardir. Odamlar asrlar mobaynida odil jamiyatni orzu qilib, haqiqat tantanasi uchun kurashib kelgan.

Adolat buzilgan yerda umidsizlik va tushkunlik hukm suradi. Adolat tantana qilgan jamiyat yuksaklikka ko`tariladi.

Har bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, xalqning qadriyatlari va orzu-istiklariga mos keladigan g`oyalar kishilarning ongi va qalbidan joy olgan. Ta`kidlash joizki, bashariyatning ziddiyatli tarixi mobaynida hayotbaxsh g`oyalar bilan bir qatorda, soxta va tuban niyatlar, tajovuzkor va g`arazli fikrlar ham ko``bo`lgan. Binobarin, xalqlar va davlatlar taqdiriga ta`siri, o`zining sifatlariga ko`ra g`oyalar **yuksak** yo **tuban**, **bunyodkor** yoki **vayronkor**, **buzg`unchi** yoxud **ekstremistik**, **tajovuzkor** bo`lishi ham mumkin.

Prezident Islom Karimov ta`kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni ji`slashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g`oyalar yuksak g`oyalardir<sup>1</sup>. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar o`rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qo`zg`aydigan tuban fikrlar buzg`unchi g`oyalarga misol bo`ladi. Aslida bunday qabih niyat va soxta shiorlarni g`oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgani, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g`oyalarni turlarga ajratish mumkin.

Sohiblari, ya`ni g`oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, **sinfiy g`oya**, **milliy g`oya**, **umumxalq g`oyasi**, **umuminsoniy g`oyalar** ham mavjud bo`lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma`lum bir tarixiy sharoitda harakatga undayotgan g`oya mazmunan umuminsoniy bo`lishi ham yoki tor manfaatlarni ko`zlaydigan sinfiy g`oya jamiyat va inson manfaatlariga zid bo`lishi ham mumkin.

Har bir avlod, har bir xalq, har bir davlatning o`z rivojlanish xususiyatini aks ettiradigan milliy g`oyalari bo`lgan.

**Ilmiy g`oya** ilmiy bilishning birinchi shaklidir.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Islom Karimov mustaqillik sharoitida milliy istiklol g`oyasi masalasini

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qoramiz. - T.7. –T, «O`zbekiston», 1999.-B 308.

kun tartibiga qo`yan, uning mohiyatini, mazmunini, asosiy tarkibiy tuzilmasini (tamoyillari va tushunchalari), rivojlanish qonuniyatlarini ohib bergan, tahlil etgan ilk tadqiqotchidir.

2. Islom Karimov milliy istiqlol g`oyasi masalasini iqqisodiy-ijtimoiy va ma`naviy hayotni, xalq ongini, tafakkurini yuksaltirish, ayniqsa, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bilan chambarchas bog`lagan holda tadqiq qiladi.

3. Milliy istiqlol g`oyasi xalqning asriy orzu-intilishlari, oliv maqsadini ifodalovchi g`oya sifatida jamiyatni, barcha ijtimoiy qatlam va guruhlarni birlashtiradi, ammo u davlat maqomiga ega emas.

4. Milliy g`oyani davlatimiz rahbari O`zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarni ulug` maqsadlar yo`lida birlashtiruvchi omil sifatida ko`radi. Uning teran, ilmiy vaadolatli talqinidagi milliy istiqlol g`oyasi millatchilik va milliy mahdudliqdan mutlaqo yiroq tushuncha hisoblanib, u umuminsoniy qadriyatlarga qarshi qo`yilmaydi, aksincha, insoniyatning barcha ijobjiy yutuqlariga, yangiliklarga ochiqliga bilan xarakterlanadi.

5. Milliy istiqlol g`oyasi halqning oliv maqsadi, kelajakka intilishlarini, o`zligini, milliy manfaatlarini anglash darajasini mujassam holda ifodalaydi.

6. U quriladigan yangi jamiyatning, shakllantirilayotgan yangi insonning mohiyatini ohib beradi.

7. Jamiyatdagi barcha yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlarini, ta`lim-tarbiya, ma`naviyat va ma`rifat masalalarini millatning oliv maqsadlari va komil inson tarbiyasi bilan bog`laydi.

8. Jamiyat manfaatlari va shaxs manfaatlarini uyg`unlashtiradi. Milliy konsolidatsiyaga, yagona maqsad yo`lida jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruqlar, tabaqalar, etnik birliklar ji`slashuviga xizmat qiladi.

## **II-BOB. O`ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MILLIY G`OYANI RO`YOBGA CHIQARISHNING MUHIM JIHATLARI.**

### **2.1. Taraqqiyotning o`zbek modeli - Vatan ravnaqi, yurt, xalq farovonligi kafolatidir.**

"Bugun biz istiqboldagi buyuk mamlakat — O`zbekistonning bo`ybastini rejalab turibmiz. U ertaga qanday bo`lishi sizu bizning bugungi harakatimizga, tadbirkorligimizga, iymonu vijdonimizning `okligiga va Vatan manfaatini shaxs manfaatlaridan qay darajada ustun qo`ya olishimizga bog`liqdir".

**Islom Karimov**

Buyuk maqsad yo`lidan og`ishmaylik (O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida so`zlangan nutqidan, 1993 yil, may)

Har qanday tarixiy davrda, har bir mamlakatda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy rivojlanish darajasini belgilashda mushtaraklashgan universal mezon hisoblanib, millat, elat va xalqlarning tarixiy shakllangan mentalitetiga, manfaatlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasi bilan bevosita bog`liq va uning mazmunini ifodalaydigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy-madaniy xodisalar rivojlanishining ob`ektiv shart-sharoitlarini, sub`ektiv omillarini, chuqur o`rganish hamda nazariy-kontsektual asoslarini ishlab chiqish g`oyat dolzarb ilmiy muammodir.

O`zbekistonda milliy istiqlol g`oyasi va mustaqillik falsafasining asoschisi Islom Karimovdir. Xususan, ilmiy-kontsetstual jihatdan mamlakatimiz milliy taraqqiyot yo`lini, ozod va obod yurt tinchligining istiqbollari strategiyasi hamda taktikasini asoslab berish, mustaqillik yillarida qo`lga kiritilgan katta muvaffaqiyatlarning amaliy tajribalari bevosita Islom Karimov nomi bilan bog`liq bo`lib, Vatan va millat oldidagi buyuk xizmatlaridir.

Umuman insoniyat tarixiy taraqqiyoti tajribasida, xususan mustaqil O`zbekiston rivojlanishining "o`zbek modeli" teran ilmiy-falsafiy tafakkur

natijasidir. Darhaqiqat, ijtimoiy-siyosiy fikrlar tarixida qiyosi bo`lmagan "besh tamoyil"ning ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishi umuminsoniyat tsivilizatsiyasi taraqqiyotini muhim nazariy xulosalar va amaliy tajribalar bilan boyitishga olib keldi.

Agar, biz bu tamoyillarning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasi bilan bog`liqlik jihatlarini ko`rib chiqadigan bo`lsak, ularning mavjudligi va rivojlanishidagi ob`ektiv-sub`ektiv omillari hamda shart-sharoitlari birligi yaqqol namoyon bo`ladi.

**Birinchidan**, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi tamoyili, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi xalq farovonligini ta`minlaydigan ijtimoiy-siyosiy omillar tarkibidagi iqtisodiy determinizm g`oyalaridan tubdan farq qiladi. Zero, mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat oldida turgan vazifalar tizimi va ularni hal qilish ketma-ketligi nuqtai naza-ridan iqtisodiyotni rivojlantirish, birinchi navbatda kun tartibiga qo`yildi. CHunki, iqtisodiyotni mustabid tuzumdan meros qolgan totalitarizm, volyuntarizm, sub`ektivizmga asoslangan hukmon komunistik g`oya va mafkuraning, siyosiy tizimning iskanjasidan xalos qilmasdan, Vatan ravnaqimi, yurt tinchligini, xalq farovonligini ta`minlaydigan demokratik islohotlarni amalga oshirish mumkin emas edi.

Islohotlarning birinchi bosqichida O`zbekisto`nsh` milliy-tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini, demografik etnografik, madaniy sturukturasini, ishlab chiqarishning mustabid tuzum sharoitida shakllangan tarkibiy tuzilishimi har tomonlama e`tiborga olib, iqtisodiy islohotlar — ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni jamiyatning ob`ektiv qonuniyatları asosida tashkil qilishi, unda inson omilining rolini oshirish — barqaror rivojlanish-ning zaruriy sharti edi. Bunda "...eng muhim ustuvor masala — bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo`llab-quvvatlash, shu asosda aholi bandligini va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan ibortdir".<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>.Karimov I. A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish - asosiy vazifamizdir. O`zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni

Bu sohada qo`lga kiritilgan muvaffaqiyatlar keyingi yillarning rejalarini tuzish, ularni amalga oshirishning real imkoniyatlarini qidirib to`ishni taqozo qilmoqda. 2008 yidda "kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yal`i ichki mahsulot tarkibidagi ulushini 48 foizga, 2010 yilga borib esa 50-52 foizga, xizmat ko`rsatish sohasining salmog`ini tegishli ravishda 45 va 49 foizga yetkazish uchun bugun bizda barcha asos-larimiz bor. 2010 yilda yangi tashkil etilayotgan ish o`rinlarini kasanachilik asosida 250 mingtaga yetkazish"<sup>1</sup> ko`zda tutilmoqda.

Iqtisodiy islohotlarning jamiyat siyosiy tizimini o`zgartirishga nisbatan ustuvorligini ta`minlash, mafkura yakka hokimligidan xoli qilish natijasida, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasini amalga oshirishning quyidagi imkoniyatlari vujudga keldi. Ya`ni:

1) jamiyatni boshqarayotgan mavjud siyosiy tizimning `arokanda bo`lishi natijasida, muqarrar tarzda kelib chiqishi mumkin bo`lgan hokimiyat talashish, siyosiy boshboshdoqlik, anarxiya hodisasining oldi olindi, jamiyat ijtimoiy-siyosiy "iqlimining" mo``tadilligi, mamlakatda tinchlik va barqarorlik ta`minlandi;

2) iqtisodiyotni siyosatdan bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida muqobil mulkchilik shakllarining vujudga kelishi iqtisodiy ishlab chiqarish sohasining tarkibiy o`zgarishlariga asos bo`ldi; 3) siyosiy tizimi shaklidan qat`i nazar turli mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlar o`rnatish, "ochiq eshik" siyosati chet el invistitsiyasi kirib kelishiga imkoniyat yaratdi; 4) kishilar ongidagi mustabid tuzumdan qolgan boqimandalik kayfiyati barham to`ib, tashabbuskorlik, tadbirkorlik sifatlari qaror to`di.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligini ta`minlash, uni "**erkinlashtirishdagi bosh vazifa — eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik**

---

chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasidan. Xalqso`zi, 2007 yil, 12 fevral.

<sup>1</sup> Karimov I. A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta`minlash - barcha islohot va o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O`zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ij-timoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasidan. "Xalq so`zi", 2008 yil, 9 fevral.

vazifalarini — funktsiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo`jalik faoliyatiga... aralashuvini cheklashdan iborat bo`ldi".<sup>1</sup>

Bular o`z navbatida, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasini amalga oshirishning, milliy mustaqillikni mustahkamlashning zaruriy iqtisodiy shart-sharoitlarini yaratib berdi.

*Ikkinchidan*, jamiyatning har qanday tarixiy rivojlanish bosqichlarida davlat siyosiy ustqurmaning mushtaraklashgan asosiy elementi sifatida, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni *tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishda* muhim rol o`ynaydi. Ayniqsa, jamiyatning zamonaviy bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tish davrida, davlatning bosh islohotchilik roli va vazifasi alohida ahamiyatga ega.

Insoniyat taraqqiyotining tarixiy tajribalari demokratik tamoyillarga asoslangan davlatgina bosh islohotchilik rolini bajarishi mumkinligini nazariy va amaliy jihatlardan isbotlab bergen. Darhaqiqat, jamiyat siyosiy institutlari ichida davlatning bosh is-lohotchilik rolini belgilaydigan "kuch-qudrati, avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko`rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro`yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o`lchanadi".<sup>2</sup>

O`zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi g`oyasini amalga oshirishda davlatning bosh islohotchilik roli quyidagi xususiyatlarida namoyon bo`ladi: 1) davlat — siyosiy hokimiyatning uzviy mushtaraklashgan institutlari tizimiga ega bo`lib, milliy g`oyani amalga oshiradigan, strategik maqsadlarga yo`nal-tirilgan ichki va tashqi funktsiyalarini bajarishning mukammal mexanizmlariga, vositalariga ega; 2) davlatning demokratik konstitutsionalizmga asoslangan qonuniy-huquqiy tamoyillari va ularning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasi

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot– pirovard maqsadimiz. –T, O`zbekiston. 2000.-B. 17.

<sup>2</sup> O`sha asar. B.21

manfaatlariga mos kelishi bosh islohotchilik roli samaradorligini belgilaydigan mezon hisoblanadi; 3) davlatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish jaryonida islohotchi lik rolini takomillashtirib borishi yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq faravonligini ta`minlash darajasi bilan o`lchanadi; 4) milliy taraqqiyotning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi xalq farovonligi g`oyalarini amalga oshirilishi davlatning islohotchilik roli natijasi bo`lib qolmasdan, shu bilan birgalikda, uning mavjudligi sharti va rivojlanishini ta`minlaydigan omillaridir.

***Uchinchidan***, insoniyat jamiyatining har qanday bosqichida, umuman ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, xususan g`oyaviy-mafkuraviy munosabatlarini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish muayyan qonunlarni taqozo qilgan. Bu qonunlarni yaratish "texnologiyasi", ularga qat`iy amal qilish mexanizmlari mukammalligi jamiyat, shaxs va boshqa ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan ustuvorligini ta`minlash darajasiga bog`liq bo`ladi.

Qonunlarning jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib, milliy va umuminsoniy manfaatlarga mosligi — yurt tinchligini, Vatan ravnaqini, xalq farovonligini ta`minlashning zaruriy shartidir. Zero, umumdemokratik tamoyillarga asoslangan qonunlar ustuvorligi milliy taraqqiyotning asosiy g`oyalarini amalga oshirish yo`nalishlarini belgilay-digan mezonlar tizimida alohida ahamiyatga ega. CHunki, bu g`oyalarni inson ongiga singdirish, amaliy hayotga joriy etish: 1) jamiyat rivojlanishini tashkillashtiruvchi, boshqaruvchi va nazorat qiluvchi qonunlar ustuvorligini hammaning birdek e`tirof etishi hamda istisnosiz bajarishiga; 2) qonunlarni yaratuvchi va qabul qiluvchi demokratik institutlar faoliyati ularni amalga oshirish usullari va vositalaridagi milliy xususiyatlarining umuminsoniy andazalarga mosligiga; 3) jamiyatning dinamik o`zgarishiga mos mavjud qonunlar tizimi o`zgarishini taqozo qiladigan ob`ektiv zaruriyat va ehtiyojni o`z vaqtida anglash asosida qonunlarni tahrir qilishga; 4) aholi turli qatlamlarining huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish hamda ularni yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq faravonligi uchun xizmat qilishga yo`naltirishga bog`liq bo`ladi. Buning uchun, Prezidentimiz ta`kidlab aytganidek, "...eng avvalo,

qonunchilik faoliyatimizdagi kamchiliklarni tanqidiy baholab, bartaraf etish, qonunlarimizning mukammal va izchil bo`lishiga erishmog`imiz va, eng muhimi, barcha huquqiy davlatlar qatorida qonun asosida yashashni o`rganishimiz zarur".<sup>1</sup>

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, aksariyat holatlarda qonun ustuvorligi haqida ga`irilganda, huquqiy qonunlar nazarda tutiladi, Vaholanki, tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanish qonunlari ob`ektiv xarakterga ega bo`lib, inson ularni bilish asosida o`z amaliy va nazariy faoliyatini oqilona tashkil qilishi mumkin.

Insonning tirik organizm sifatida, biologik-fiziologik tuzilishi — tabiat qonunlariga moslashuvini, ijtimoiy mavjudot sifatida esa — jamiyat qonunlariga bo`ysunishini taqozo etadi. Agar, inson bu qonunlarning ob`ektivligini suiiste`mol qilsa, muqarrar ravishda, jazosini tortadi. Shuning uchun qonun ustuvorligi deganda, birinchi navbatda, tabiat qonunlarining ustuvorligini ham e`tirof etish kerak. Chunki, insonning tabiat qonunlarini ilmiy bilishi asosida, uni o`sib borayotgan ehtiyojlariga ko`ra, oqilona o`zgartirishi va o`zlashtirishi, umuman jamiyat taraqqiyotining darajasini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, insonlarning tabiat qonunlariga asoslanib yashash madaniyatini shakllantirmsandan, ijtimoiy hayot qonunlariga ko`ra yashash madaniyatini rivojlantirib bo`lmaydi. Undan tashqarida esa, milliy g`oyaning amaliy faoliyat doirasini tasavvur qilish mumkin emas.

*To`rtinchidan*, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasining asosiy maqsadi — bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tish davrida, *aholini ijtimoiy muhofaza qilish* bilan bevosita bog`liqdir. Chunki, O`zbekistonning demografik strukturasi, iqtisodiy ishlab chiqarishning, mustabid tuzumdan meros bo`lib qolgan, tarkibiy tuzilishi aholining moddiy jihatdan kam ta`minlangan, nochor qatlamini davlat tomonidan ijtimoiy ximoya qilishni kun tartibiga qo`ygan edi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Toshkent, O`zbekiston.-B.20

Bu vazifaga mamlakatimizda davlat ijtimoiy siyosati darajasida yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligini ta`minlashning zaruriy sharti va gumanistik tamoyili sifatida qaralmoqda. Lekin, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tamoyili, keng va universal mazmunga ega bo`lib, faqatgina kam ta`minlangan kishilarga inson`arvarlik yordami ko`rsatish yoki moddiy jihatdan ko`mak berishdan iborat emas, balki hayot sharoitining barcha tomonlarini yaxshilashni ham o`z ichiga oladi.

“El-yurtimizning, shu yurtda yashayotgan har qaysi insonning esonomonligi bizning eng katta yutug`imiz va boyligimizdir. Bu boylikni ko`z qorachig`iday asrab-avaylash, qadriga yetish - barchamizning muqaddas insoniy burchimizdir”<sup>1</sup>.

2007 yil mamlakatimizda Sog`lijni saqlash tizimini tubdan isloh qilishning ikkinchi bosqichini amalga oshirish bo`yicha maxsus dastur qabul qilindi va u bugungi kunda amalga oshirilmokda. Rivojlangan mam-lakatlar tajribasidan va amaliy maqsadga javob berishidan kelib chiqqan holda, tibbiyot sohasi boshqaruv tizimining barcha bo`g`inlari qayta ko`rib chiqilmoqda.

Davlatning ijtimoiy muhofaza siyosati mamlakatimizda yashayotgan aholining iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy, madaniy, ruhiy hayot sharoitlarini mentalitetiga yot g`oya va mafkuralarning tajovuzidan muhofaza qilishni ham o`z ichiga oladi. Zero, millat ruhiga, hayot tarziga yot bo`lgan g`oyalarning mamlakatimizga kirib kelishiga qarshi kurash, fuqarolarning g`oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirish ham ijtimoiy muhofaza siyosatining muhim yo`nalishi bo`lib, milliy taraqqiyotni rag`batlantiruvchi muhim omildir.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tamoyili o`rtasidagi bog`lanish, ularning biri birini taqozo qilishida namoyon bo`ladi. Xususan: 1) Vatan ravnaqi g`oyasi aholining barcha qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari, usullari va vositalari samaradorligini ta`minlagan vaziyatda, o`z mazmu-niga ega bo`ladi;

---

<sup>1</sup>Karimov I.A Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin - T.7.-T, «O`zbekiston», 1999.-B.26. ("Tafakkur"jurnali bosh muharririning savolla-riga javoblaridan).

2) aholining ijtimoiy himoyalanish darajasi yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasining gumanistik mazmun va mohiyatini ifodalaydigan asosiy mezondir; 3) jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalardagi izchil rivojlanish xususiyatlari yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasini faol amalga oshirish jarayonida namoyon bo`ladi; 4) yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasi dinamik xarakterga ega bo`lsa ham, har qanday tarixiy davrlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning umumiy maqsad va vazifalarini ifodalaydi.

**Beshinchidan**, O`zbekistonning milliy taraqqiyot xususiyatlarini hisobga olgan holda, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tadrijiy, evolyutsion yo`l bilan bosqichma-bosqich o`tish tamoyili, hozirgacha jamiyatni rivojlantirishga doir mavjud bo`lgan ijtimoiy fikr tarixidagi nazariyalar va g`oyalarning mazmunini, umuminsoniy tamoyillarini rivojlantirishning konkretlashgan yo`nalishidir. Zero, jamiyat taraqqi-yotining tarixiy tajribalari ijtimoiy hayotni inqilobiy yo`l bilan keskin o`zgartirishlar, uning ravnaqini emas, balki g`oyat xavfli: iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy inqirozlarining asosi, boshlanishi bo`lganligini qayta-qayta isbotlab bergen. Shu nuqtai nazardan, jamiyatimiz ri-vojlanishidagi vorislik munosabatlari, tadrijiylik, "yangisini qurmasdan, eskisini buzmaslik" tamoyili yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligining zaruriy sharti bo`lib qolmoqda. Shu o`rinda yurtboshimizning quyidagi fikrlarini keltirmoqchiman. **“Men har qanday inqiloblarga qarshiman, men - tadrijiy taraqqiyot taraf-doriman. YA`ni, barcha voqealar mavjud ob`ektiv qonuniyatlar asosida rivojlanishi kerak.”<sup>1</sup>**

Umumlashtirib aytganimizda, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tadrijiy-evolyutsion yo`l bilan o`tish jarayonida, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasini amalga oshirish quyidagi xulosa-larga asos bo`ladi: 1) O`zbekistonda jamiyat taraqqiyotining mahalliy shart-sharoitlarini, millat mentaliteti xususiyatlarni e`tiborga olib, bosqichma-bosqich, tadrijiy amalga oshirilishi millat va umuminsoniyat manfaatlariga mos keladi; 2) ijtimoiy-iqtisodiy,

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizni tanlagan yo`limizdan hech kim qaytarolmaydi (2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida ro`y bergen voqealar munosabati bilan mahal.1iy va xorijiy ommaviy axborot vositalari uchun o`tkazilgan matbuot anjumanidagi bayonot va muxbirlarning savollariga javoblardan)

siyosiy-ma`naviy soha-lar islohotidagi tadrijiylik sustkashlik, inertlik emas, balki yangi jamiyat qurilishining strategik maqsadlaridan kelib chiqqan taktikadir; 3) O`zbekiston tanlagan taraqqiyot yo`li istiqboliga xalqimizning chuqur ishonchi, e`tiqodi va uni amalga oshirishdagi fidoiyligi Vatan hamda millat ravnaqining asosiy kafolatidir; 4) O`zbekistonning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo`l bilan o`tishdagi yutuklari, tajribalari jahon jamoatchiligining diqqat - e`tiboriga sazavor bo`lmoqda.

I. Karimov Birinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o`n to`rtinchi sessiyasida so`zlagan ma`ruzasida: "**Jamiyatni yangilashning inqilobiy usullariga biz mutlaqo qarshimiz. Biz tadrijiy — evolyutsion islohotlar yo`li tarafdomiz va bunga qat`iy amal qilamiz. Mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini, xalqimiz tabiatini — mentalitetini inobatga olsak, rivojlanishning mazkur yo`li biz uchun nihoyatda maqbuldir**"<sup>1</sup>, deb millat irodasini ifodalagan edi.

Bu ilmiy-nazariy va amaliy xulosa, bir tomonidan, milliy istiqlolning oliy maqsadi bo`lib, O`zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning: ijtimoiy tarkibidan, siyosiy mavqeidan, etnik xususiyatlaridai, diniy e`tiqodidan, iqtisodiy ahvoldidan qat`i nazar mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy, madaniy rivojlanish istiqboli bilan bog`liq ezgu orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, O`zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tishning hozirgi bosqichida, "Islohotlar-ning mazmuni va maqsadi O`zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va maslagidan qat`i nazar, shaxs sifatida namoyon bo`lish, o`z qobiliyatini, iste`dodini namoyish etish, o`z hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma`naviy boyroq qilish imkoniyatlariga ega bo`ladigan zarur shartlarni yaratishdan iboratdir".<sup>2</sup>

Ikkinchi tomonidan esa, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasini amalga oshirish, jamiyatning nisbatan mustaqil ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy, ma`naviy sohalardagi rivojlanish xususiyatlariga va darajalariga bog`liq

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda.- Toshkent, O`zbekiston.-B.14

<sup>2</sup> O`sha asar. 14-bet..

bo`ladi. Ularning har birini alohida-alohida o`rganish yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasining ma`no-mazmunini konkretlashtirish va ahamiyatini aniklash imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik, barkamol avlod tarbiyasining dastlabki asosi va sharti bo`lgan oilani mustahkamlash, jamiyat boshqaruvida mahalliy hokimiyatning, xususan mahalalar rolini oshirish, millat mentalitetiga xos sabr-qanoat, insof-diyonat, barqaror `sixologik muhit, sog`lom ekologik vaziyat, urbanizatsiya darajasi va aholining ish bilan bandligi kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyatning mo`tadilligi, hayotning barcha sohala-rini erkinlashtirishda demokratik tamoyillarning ustuvorlashuvi, davlat va jamiyatni boshqarishda muqobil siyosiy `artiyalar, ommaviy va nodavlat tashkilotlar rolining oshib borishi, hududiy daxlsizlikni ta`minlash va mamlakat mudofaa qobiliyatini, aholi siyosiy ongi, mas`uliyati va faolligini oshirish — milliy taraqqiyot g`oyasining *siyosiy maqsadlaridan* kelib chiqqan.

O`zbekistonda bozor munosabatlariga xos muqobil mulkchilikning shakllanishi, iqtisodiyotning tarkibiy tizimqdagi o`zgarishlar, kichik va o`rta biznes, ishbilarmonlik va tadbirkorlik, moddiy ishlab chiqarishning zamonaviy xom-ashyo va texnik-texnologik asoslari, iqtisodiyotni erkinlashtirish va raqobat, tashqi savdo va iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, eng muhimi, aholining iqtisodiy ongi va tafakkurini, madaniyatini rivojlantirish milliy barqaror taraqqiyot istiqbollarini ta`minlashning *iqtisodiy imkoniyatlarini* yaratdi. Ayniqsa, "Qishloq xo`jaligini isloh qilish bo`yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda qishloq xo`jaligi tubdan o`zgardi. Hozirgi kunda respublikamizda 215 mingdan ortiq fermer xo`jaligi faoliyat yuritmoqda, ularda 1,6 million kishi yoki sohada band bo`lgan aholining qariyib 90 foizi mehnat qilmoqda, qishloq xo`jaligi ekin maydonlarining qariyib 85 foizi ana shu xo`jaliklar hissasiga

to`g`ri keladi. O`tgan yili mamlakatimizda tayyorlangan yal`i `axta hosilining 99 foizi fermer xo`jaliklari tomonidan yetishtirildi".<sup>1</sup>

Milliy tarixiy merosimiz va an`analarimizning tiklanishi, aholi intellektual salohiyatini oshirish, ilmiy va ma`naviy-madaniy muassasalarni, san`at va adabiyotni rivojlantirish, komil insonni tarbiyalash bo`yicha O`zbekiston respublikasida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta`lim to`g`risida"gi Konunining qabul qilinishi va ilg`or `edagogik texnologiyalar yordamida izchil amalga joriy etilishi, ommaviy axborot vositalari va aloqa kommunikatsiyalari ta`sirchanligini oshirish, xalqaro madaniy munosabatlarni kuchaytirish kabi manaviy-ma`rifiy tadbirlar ham milliy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qiladi.

“Yuksak ma`naviy burchlar kecha yoki bugun o`ylab to`ilgan emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi, ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasi davomida yuzaga kelgan”<sup>2</sup>.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasi mamlakatimizning har bir fuqarosi taqdirida o`z ifodasini to`moqda. Keljak avlodlarga ozod va obod Vatan qoddirish mas`uliyati esa, hammaga birdek majburiyat yuklaydi. Uni anglash esa, inson barka molligining muhim mezonidir. Zero, bu g`oya "har bir yurtdoshimizni o`zining ma`naviy kamoloti uchun yuksak mas`uliyatini his etishga, o`z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg`unlashtirib yashashga da`vat etadi".<sup>3</sup>

Insoniyat tarixining har qanday bosqichida, har bir kishi o`z vatani ravnaqini oliy maqsad deb bilgan va o`zicha tasavvur qilgan. Masalan, jazirama sahroda yashovchi — ko`chmanchi badaviy, abadiy muzliklar bilan qo`langan yurtlardagi — evenklar, inson o`tib bo`lmaydigan to`qaylarda yashayotgan — aborigenlar va boshqa xalqlar uchun ajdodlari o`tgan hamda o`zlari yashayotgan tabiiy muhit, ijtimoiy makon Vatan hisoblanadi. Uning ravnaqini o`z o`tovi,

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash - barcha islohot va o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir. "Xalqso`zi", 2008 yil 9 fevral.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Istiqlol yo`li: muammolar va rejalar (XII chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Ken-gashining X sessiyasida so`zlangan nutqidan, 1992 yil iyul).

<sup>3</sup> Milliy istiqlol g`oyasi. Asosiy tushuacha va tamoyillar. - T., O`zbekiston, 2000 yil, 51-52-b

chaylasi, yerto`lasida yashayotgan oilasi, qondosh urug`lari, xalqi hayot tarzi, e`tiqodi, orzu-umidlari timsolida tasavvur qiladi. Bu tasavvurlardagi umumiylilik ma`naviyatdagi umuminsoniylikning namoyon bo`lishidir. Biroq, o`z vatani ravnaqini mutlaqlashtirib, boshqa kishilar manfaatlariga qarama-qarshi qo`yish, hech qachon tom ma`nodagi yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasining mazmunini ifodalamaydi. Agar biz, ularni oliv baxt deb hisoblaydigan bo`lsak, buyuk faylasuflardan biri aytganidek, "birovlarining ko`z yoshlari evaziga erishilgan baxt — eng buyuk baxtsizlikdir".

Umumlashtirib aytadigan bo`lsak, erkin bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitda, jamiyatning umuminsoniy demokratik tamoyillarga asosan ijtimoiy tabaqalanishi jarayonida, nafaqat iqtisodiy nuqtai nazardan, balki ma`naviy-ma`rifiy, `sixologik-ruhiy jihatlardan ham qatlamlashish hodisasi sodir bo`lmoqda. Har bir ijtimoiy guruhning siyosiy qiyofasi, eng avvalo uning mafkurasida namoyon bo`ladi. Chunki, *mafcura —yagona Vatan hududida yashayotgan millatga, xalqqa mansub bo`lgan ijtimoiy guruxlar yuyasi va falsafiy dunyoqarashlari, orzu-istiklarining siyosiy jihatdan manfaatlashgan hamda ularni amalga oshirish usullari va vositalarshshng mushtaraklashgan shaklidir.* Shuning uchun ham jamiyatning turli ijtimoiy tabaqalarga ajralishi murakkab mafkuraviy tizimni vujudga keltirishi bilan birgalikda, ular tarixiy zaruriyatga ko`ra, har bir millat, elat, ijtimoiy qatlamning yurti tinchligi, Vatani ravnaqi, xalqi faroyunligi goyasi doirasida tutashadi va mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolar hamda ijgamoiy tabaqalar uchun umummilliylig`oya sifatida e`tarof etiladi.

## **2.2. G`oyalarni amalga oshirishning manaviy-mafkuraviy asoslari.**

*Milliy g`oya, milliy tafakkurni shakllantirmay, ta`lim-tarbiya sohasini isloh qilish, odamlarning ongini o`zgartirish, ularni umumbashariy maqsadlar sari yo`naltirishdek murakkab ijtimoiy vazifalarini yechish mumkin emas.*

**Islom Karimov**

*Hushyorlikka da`vat (Uzbekiston Milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblardan).*

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, ma`naviy-mafkuraviy sohada, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasini amalga oshirishning yaqin hamda uzoq muddatlarga mo`ljallangan strategik va taktik vazifalarini belgilab oldi. Zero, hozirgi davr ijtimoiy-siyosiy fikr tarixida, jamiyat rivojlanishining asosiy yo`nalishlarini belgilovchi omillar majmuasiga munosabatda, ma`naviy-mafkuraviy jihatlarga deterministik qarashlarning ustuvorlashib borish mayli, tendentsiyasi kuzatilmogda.

Darhaqiqat, har qanday jamiyatning barcha sohalardagi rivojlanish darajasi mezon, avvalo uning ma`naviy-madaniy ko`rsatkichlarida namoyon bo`ladi. Ya`ni, insoniyatning intellektual salohiyati, dunyoviy bilimlari, e`tiqodi, imoni, dunyoqarashi, axloqi, xullaski ma`naviyati va madaniyati iqtisodiy rivojlanishini, siyosiy kuch-qudratini, davlatchilikning demokratik xususiyatlarini va boshqa amaliy faoliyat yo`nalishlarini belgilab beradigan omilligini falsafiy tafakkur tarixi nazariy jihatdan isbotlab bergen, Shuning uchun mustaqillikka erishgandan keyin, millatning o`zligini anglash jarayoni kechayotgan hozirgi sharoitda, milliy taraqqiyot g`oyasining tarixiy genezisini, ma`naviy-mafkuraviy asos-larini o`rganishga qiziqish kuchaymoqda, ya`ni uning nazariy-kontse`tual, metodologik-tashkiliy masalalari ijtimoiy-siyosiy fanlarning dolzarb ilmiy muammolariga aylandi.

Jamiyatning ma`naviy-mafkuraviy rivojlanish xususiyatlari va darajasi yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasida namoyon bo`lib, mamlakat

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqaror taraqqiyotining zaruriy sharti hamda kafolatidir. Zero, har qanday mamlakat o`z ma`naviy-mafkuraviy rivojlanish imkoniyatlarini, milliy g`urur va iftixorga asoslangan o`zligini anglash tuyg`usini fuqarolari ongiga, kalbiga singdirmay turib, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi haqidagi g`oyalarini amalga oshirishi, amaliy jihatdan juda qiyin vazifadir. Shuning uchun ham Prezidentimiz jamiyat ma`naviyatini rivojlantirishni mamlakatimizda izchil o`tkazilayotgan islohotlarning ustuvor yo`nalishi deb e`lon qilar ekan, "Erkin fuqaro ma`naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o`z haq-huquqlarini taniydigan, o`z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo`layotgan voqealari-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg`un holda ko`radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak",<sup>1</sup> deb ko`rsatgan edi.

"Hozirgi vaziyatda bunday talab ayniqsa muhim bo`lib, kishini hayajonga soladi. Voqealar tezlik bilan o`zgarayotgani, deyarli har narsada keskinlik kuchayib borayotgani, turli millatlarning vakillari o`rtasida o`zaro munosabatlar o`tkirlashib ketayotganini hammamiz sezib turibmiz. Har xil ijtimoiy guruhlarning o`zaro shubha-gumoni va bir-birini asossiz ravishda ayblashlari ortib borayotgani, odamlar toshbag`ir bo`lib qolayotganini ham ko`rib turibmiz. Oldin odamlar «yashash qiyin bo`lib qoldi» desa, hozirgi hayotda «yashash dahshatli bo`lib qoldi» degan ibora ‘aydo bo`lganidan ko`z yumib bo`lmaydi.

SHu boisdan bugungi maqsad odamlarni tashvishlantirayotgan eng asosiy masalalar haqida ayni mana shunday nufuzli anjumanda ro`yi-rost ga`lashib olish: nimalar sodir bo`lya`ti, biz qayoqqa qarab ketya`miz,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. UzbekistonXXI asrga intilmoqda.- Toshkent, O`zbekiston.-B. 17-18

degan hayajonlantiruvchi savollarga javob qaytarishimiz nihoyatda zarurdir. Vaziyatni yumshatish va barqarorlashtirish, xavotirlik va keskinlikka barham berish, har bir kishida o'z oilasining bugungi kuni va kelajagiga ishonch uyg'otish uchun biz - oliy vakolatlar berib qo'yilgan va yuksak mashuliyatli xalq de'utatlari nimalar qilishimiz kerakligini belgilab olishimiz zarur.<sup>1</sup>

“Respublikaning har bir fuqaro si respublika taqdiridagi tarixiy o`zgarishlarda ishtirok etayotganligini, kelajak uchun shaxsiy mas`uliyatini haqiqiy his etgan taqdirdagina xalqimiz chinakam erkin va baxtiyor kuchli davlat qurishi mumkin”<sup>2</sup>.

Bu vazifani bajarish mamlakatimizda ma`naviy-mafkuraviy sohani rivojlantirishning muhim omili bo`lgan milliy ta`lim-tarbiya tizimini isloh qilishning tarixiy zaruriyatini va amaliy yo`nalishlarini belgilab berdi. Shunga ko`ra, mamlakatimiz aholisining yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo`lida ijtimoiy-siyosiy mas`uliyatini va faolligini oshirish maqsadida yuksak ma`naviyatlari va ma`rifatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur egallagan, demokratik tamoyillar va fuqarolik jamiyatni asoslarini har tomonlama o`zlashtirgan, shaxsiy va umummilliylar manfaatlarni o`zaro uyg`unlashtiradigan erkin shaxs va komil inson tarbiyasidagi ma`naviy-ma`rifiy islohotlarni davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo`nalishi, deb belgilanishi tasodifiy emas.

Ma`lumki, har qanday jamiyatning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tishi, bir tomondan, muqarrar ravishda, uning ijtimoiy-siyosiy tabaqlanishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan, jamiyatni tashkil qilgan ijtimoiy-siyosiy tabaqa va qatlamlarning manfaatlaridagi xilma-xillik esa, ularning o`zaro ziddiyatlarini ham keltirib chiqaradi. Jahonda demokratik tamoyillarga asosan rivojlangan mamlakatlarning tarixiy taj-ribalari shu ziddiyatlarni o`z vaqtida, oqilona xal

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikga erishish ostanasida. –Toshkent, O`zbekiston, 2011.-B.127,128.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Buyuk maqsad yo`lidan og`ishmaylik (O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengaishning XII sessiyasida so`zlangan nutqidan, 1993 yil may)

qilishning yo'llarini, vositalarini, usullarini to`ish — mamlakat barqaror taraqqiyotining garovi ekanligini ko`rsatib bermoqda. Ayniqsa, bir tuzumdan boshqa tuzumga o'tishning sobitqadamligi jamiyat va davlatning, turli ijtimoiy guruxlarning o`zaro mafkuraviy murosasiga bog`liq bo`ladi. Shuningdek, mavjud jamiyatdagi muqobil g`oyalar va mafkuralarning yagona milliy manfaatlar doirasida tutashuvi, o'tish davrida "siyosiy iqlim" mo``tadilligini ta`minlaydi.

Muayyan tarixiy davrlardagi davlatchilikning ichki ziddiyatlari keskinlashuvi natijasida vujudga kelgan g`oyaviy ojizligi, inertligi, ma`naviy-mafkuraviy qashshoqligi va noshudligi, millatni `arovandalikka olib kelganligini va qullikka mahkum qilganligini o`tmishning achchiq tajribalari qayta-qayta isbotlab bergan. Tarixning bu xulosalaridan saboq olib, mamlakatimizda yashayotgan barcha millatlarni, elatlarni va shakllanayotgan ijtimoiy-siyosiy qatlamlarni milliy g`oya atrofida ji`slashtirish dolzarb vazifa bo`lib qolmoqda.

Shunga ko`ra, har qanday tarixiy davrda, barcha mamlakatlarda, davlatlarda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi istiqbollarini ta`minlashning ma`naviy-mafkuraviy zaminini yaratish va mustahkamash umumiy qonuniyat, bo`lib, muayyan bosqichlarni o`z ichiga oladi. Shu jumladan, mamlakatimiz milliy mustaqillikni qo`lga kiritgandan keyin ma`naviy-mafkuraviy sohadagi rivojlanish bosqichlarini, nisbatan mustaqil, lekin o`zaro bog`liq bo`lgan ikki davrga ajratishimiz mumkin. Ya`ni, birinchi davr — 1991-1995 yillarni o`z ichiga olib, bu qisqa tarixiy davrda "mamlakatda soxta g`oya, ma`muriy-buyruqbozlik asosiga qurilgan, sobiq Ittifoqning mustabid tizimiga barham berildi. Tarixiy, millmy va axloqiy qadriyat hamda an`analarning, muqaddas dinimizning jamiyat ma`naviy yuksalishidagi o`rni va ahamiyati qayta tiklandi hamda yangi ma`naviy va axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi ta`minlandi".<sup>1</sup> Shuningdek, mutlaqo yangi davlatchilik ti`ining vujudga kelishi, millatning milliy o`zligini anglashi, bozor iqtisodiyoti bilan bog`liq madaniy-ma`naviy qadriyatlarni shakllantirishi, xalqaro ma`naviy-madaniy munosabat kanallarini, imkoniyatlarini qidirish, uning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish bilan xarakterlanadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- Toshkent, O'zbekiston.-B 8-9.

Ikkinchi bosqich — 1996 yillardan boshlanib, yangi asrda respublikamizda ma`naviyat, madaniyat rivojlanishiga asos bo`ladigan amaliy chora tadbirlarni hayotga izchil joriy etish, davlatning milliy intellektual salohiyatini rivojlantirishga mo`ljallangan "Ta`lim to`g`risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" (1997 yil) qabul qilindi. Bu tarixiy hujjatlar respublikamizda ta`lim tizimini tubdan isloh qilish, uni mustabid tuzumdan qolgan mafkuraviy qarashlardan tozalab, zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar andazalariga mos yuksak ma`naviy-axloqiy talablarga javob beradigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishning qonuniy-huquqiy asoslari bo`ldi.

Ayniqsa, 2008 yilni "YOshlar yili" deb e`lon qilinishi ham mamlakatimiz aholisining qarayib 65 foizini tashkil qilgan yoshlarga davlat siyosati darajasida ko`rsatilayotgan g`amxo`rlik natijasi bo`lib, mamlakatimizda yoshlar muammosini hal qilishda muhim qadam bo`lishiga shubha yo`q. Zero, muayyan yillarni maxsus nom bilan atalib, ularda jamiyatimiz barqaror taraqqiyotining ustuvor vazifalarini belgilash hamda amalga oshirishdagi tajribalar davlatimizning "YOshlar yilda" amalga oshiriladigan dasturlarini ham muvffaqiyatli bajarishiga ishonch tug`diradi. **"Eng asosiysi-ushbu dastur yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi barcha dolzarb muammolarni o`z vaqtida hal etishga qaratilishi va buning uchun mustahkam qonunchilik bazasini ta`minlab berishi lozim".<sup>1</sup>**

Biz o`z tanlagan yo`limizdan sobitqadamlik bilan borar ekanmiz, nafaqat bugungi, avvalo, ertangi kunimiz qanday bo`lishi, farzandlarimizning qanday hayot kechirishini, ularning yorur kelajagini o`zimizga aniq tasavvur qilib, rejalarimizni shu asosla tuzishimiz zarur". (**Islom Karimov-** *Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaati-dan ulug`maqsad yo`q (Ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VII sessiyasida so`zlangan nutqidan, 2001 yil dekabr)*

Iqtidorli yoshlarni qo`llab-quvvatlash maqsadida "Umid", "Ustoz", "Ulug`bek", "Kamolot", "Sog`lom avlod uchun" davlat jamg`armalari tashkil etildi. Hozirgi vaqtida ularning bevosita homiyligida talaba va magistrantlar xorijning nufuzli oliy o`quv yurtlarida ta`lim olmoqdalar. Darhaqiqat, bugun biz

<sup>1</sup> Karimov.I.A Inson manfaatlari usto`vorligini ta`minlash – barcha islohot va o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir. "Xalq so`zi", 2008 yil, 9 fevral.

"yoshlarimiz qanday qadriyatlar sari intilmoqda, qanday orzu-niyat va uy xayollari bilan yashamoqda-biz bunga aslo loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota-onal ustozi murabbiy, yetakchi rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatishga haqqimiz yo`q. Ma`naviyat sohasida bo`shliq bo`lmaydi. Biz farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo`lgan ta`sirlaridan himoya qilishimiz, ularni hayotga, yon atrofda yuz berayotgan voqeal-hodisalarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, iymon-e`tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim".<sup>1</sup>

Mamlakatimiz milliy taraqqiyot yo`liga o`tgandan keyin ma`naviy-madaniy merosga munosabat tubdan qayta tiklandi. Xususan, Islom dini xalqimizning qadimiy qadriyati sifatida, o`zining ijtimoiy hayotdagagi mavqeini mustahkamlamoqda. YUrtboshimiz I. Karimov ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining uchinchi sessiyasida so`zlagan nutqida: "O`zbekiston o`zining qadimiy tarixi bilan, eng muhimi, islom falsafasi, islom dinining olivjanob g`oyalarini yuksaltirishga, uning ilmiy asoslarini yaratib, dinimizning obro`siga obro` qo`shgani bilan musulmon olamida beqiyos mavqega ega", deb O`zbekistondagi ma`naviy-mada-niy islohotlarning roliga katta baho bergen edi. 2007 yilda Toshkent shahrini AYSEKO tashkiloti tomonidan "Islom madaniyati" `oytaxti deb e`tirof etishi ham mamlakatimizda islom dini qadriyatlarni xalqaro miqyosda e`tirof etilishiga olib keldi.

Bu ijtimoiy-siyosiy hodisalar tarixiy taraqqiyotning xususiyatlariga mos tarzda o`z mazmunini o`zgartirmoqda. Ya`ni, hozirgi davrda, bir tomondan, dirlarning siyosatdan begonalashuvi, davlat bilan qonun doirasidagi konstitutsion "subordinatsiyasining" o`rnatalishi ta`minlangan. Ikkinchi tomondan, hozirgi davrda ularning sekulyarizatsiyalashuvi nisbiy, shartli xarakterga ega bo`lib, davlatning ichki ishlariga, xususan ma`naviy-madaniy sohalardagi tadbirlariga

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va uzgarishlarimizning bosh maqsadidir. "Xalq so'zi", 2008 yil, 9 fevral.

faol aralashuvini, ayniqsa tinchlikni saqlash, barqarorlikni ta`minlash borasida mustahkam hamkorligini taqozo qilmoqda.

Shu bilan birgaliqda, dinning g`yaviy-mafkuraviy jihatdan siyosatlashuvi, uning ichida reaktsion, tajovuzkor mazhablarning `aydo bo`lishida, siyosiy manfaatlarini, mavqeini mustahamlashga bo`lgan harakatlarida, xalqaro diniy fundamentalistik, terroristik, ekstremistik yo`nalishlarning vujudga kelib, diniy mansublik asosida dunyoni bo`lib olishga urinishlarida namoyon bo`lmoqa.

Bunday siyosiy `atologik hodisa biror chegaralangan ijtimoiy makonda `aydo bo`ladi-yu, lekin uning rivojlanishi uchun qulay muhit mavjud bo`lgan hududlarga juda tez yoyilib ketishi mumkin. Ayniqsa, bu mamlakatlarning iqtisodiy ojizligi, siyosiy vaziyatining nomo``tadilligi, mafkuraviy bo`shligi, uning ildiz otishiga imkoniyat yaratadi. Bunda asosiy sabab — aholining diniy savodsizligi bo`lib hisoblangani uchun ham O`zbekistonda islom dinining haqiqiy mohiyatini xalq ommasiga yetkazish va milliy g`oya va mafkurani shakllantirishdagi rolini oshirish maqsadida diniy ta`lim-tarbiya tizimi vujudga kelmoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda 10 ta Islom diniy o`quv muassasasi faoliyat ko`rsatmoqda. Jumladan, Toshkent Islom institutida 559 ta, 9 ta madrasada 871 ta talaba o`qimoqda. Shu jumladan, Toshkent va Buxoro ayollar madrasalarida 200 ta qizlar diniy bilimlardan ta`lim olmoqda. 1999 yil Toshkentdagি Islom Universiteti talabalar qabul qilishni boshladi.

Ma`naviy qadriyatning tarkibiy qismi bo`lgan dinlar va ularning tashkilotlari o`zaro birlashib, dunyoning siyosiy jarayonlariga faol ta`sir qiladigan g`oyaviy-mafkuraviy kuchga, omilga aylanishi, desekulyarizatsiya hodisasining zamonaviy tarzda namoyon bo`lishidir. Xususan, O`zbekistonda 17 ta diniy konfessiya faoliyat ko`rsatmoqtsa, ularning vakillari 15 dan ortiq diniy tashkilotga birlashgan. YA`ni, Rus `ravoslav cherkovi 26 tashkilot, 2 monastir, 1 o`quv muassasasiga, Yevangeliya ba`tislari cherkovi 15 tashkilot, 1 markazga, Koreys `rotestant cherkovi 44 tashkilotga birlashgan. Ular 1998 yil 1 mayda O`zbekiston respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan davlatning dunyoviy

rivojlanishi va diniy e`tiqod erkinligini ta`minlovchi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida"gi Qonun asosida faoliyat ko`satmoqdalar.

Lekin, yuqorida aytganimizdek, dinlardan o`zlarining shaxsiy, g`arazli maqsadlari, siyosiy maslaklari yo`lida foydalanishga urinishlar, turli diniy ekstremistik, jangari oqimlarning `aydo bo`lishiga olib kelmokda. Ularning dunyoni diniy mansublikka asosan bo`lib olishga bo`lgan harakatlari din va uning umuminsoniy qadriyatlari bilan hech qanday umumiyligi yuq. Aksincha, kishilarni buniyodkorlik ishlaridan chalg`itib, jamiyatni fuqarolar urushi girdobiga tortishi mumkin.

Xalqimizda "Suv bo`lmagan joyda qamish o`smaydi", degan hikmatli ga`bor. Darhaqiqat, qamishni o`rib tashlasangiz ham yoqib yuborsangiz ham baribir o`sib chiqaveradi. Uni yo`q qilishning yagona chorasi — mavjudligini ta`minlaydigan suvni quritish, o`sish muhitini yo`qotishdir. Shu tamoyilga ko`ra, milliy taraqqiyotimiz jarayoniga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin bo`lgan g`oyalarning kirib kelishi va ildiz otishiga imkoniyat bermaslik muhim ahamiyatga ega. Buning uchun "...**biz farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo`lgan ta`sirlaridan himoya qilishimiz, ularni hayotga, yon atrofda yuz berayotgan voqeahodisalarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, iymone`tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim**".<sup>1</sup>

Ma`lumki, g`oyaviy-mafkuraviy tajovuzlar uchun chegaralarning g`oyat nisbiyligidan, texnik-texnologik jihatdan g`oyat mukammal ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalari orqali sodir bo`lganligidan, jamiyatimizga, hayot tarzimizga, milliy mentalitetimizga yot bo`lgan mafkurani "filtrlash", "elab o`tkazish" siyosati bilan, uning salbiy ta`sirini bartaraf qilish juda qiyin. Buning uchun jamiyatimizda mafkuraviy bo`shliq bo`lishiga yo`l qo`ymaslik maqsadida yurtimizning milliy istiqloliga, xalqimizning hayot tarziga yot bo`lgan g`oyalarning e`tiqodi sust, imon-irodasi bo`sh kishilarning ongini zabit etish sabablarini aniqlash zarur. Chunki, goyaviy-mafkuraviy tajovuzlarga qarshi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta`minlash - barcha islohot va o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir. "Xalq so`zi", 2008 yil, 9 fevral.

ma`naviy-ma`rifiy chora-tadbirlarni qo`llab, uning oldini olish, salbiy oqibatlariga qarshi kurashishga nisbatan samaralirokdir. Shuning uchun ham jamiyatning yot g`oyalarga, mafkuraviy tajovuzlarga qarshi kurashini mushtarak-mujassam, tashkiliy jihatdan uyushgan holda olib borishning tsivizatsiyalashgan sistemasini, mustaxkam institutsional tizimini yaratish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish vazifasi bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatning barqaror g`oyaviy-mafkuraviy makonini shakllantiruvchi institutsional strukturasini tashkil qilish jarayoni muayyan vaqt ni talab qiladi. Chunki, millatning mentalitetiga xos bo`lgan jamoatchilik fikri, moddiy va ma`naviy qadriyatlari tizimi, tarixiy tafakkur tarzini, xullas mafkuraning ijtimoiy-sixologik, siyosiy ong, madaniyat kabi elementlarini, ularning munosabatlarini jamiyatning demografik, etnografik strukturasi xususiyatlarini hisobga olib, o`zgartirish sabr-toqat bilan izchil harakatni taqozo qiladi. Bundan tashqari, "...biz eski tizim o`z o`rnini osonchilikcha bo`shatib bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va yengil o`z ta`siridan, iskanjasidan chiqarmasligini yetarli darajada o`zimizga tasavvur qilishimiz va hisobga olishimiz zarur"<sup>1</sup> va bu g`oyaviy-mafkuraviy ishlarimizning samaradorligini belgilaydi.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, millat kelajagi, eng avvalo, davlatning yoshlar siyosati bilan belgilanadi. Mamlakatimizda 65 foiz aholini 35 yoshgacha bo`lgan kishilar tashkil qilishi, bu demografik qatlama ongida, hayot tarzida milliy g`oyani shakllantirishning dolzarbligini va ahamiyatini ko`rsatadi. Bu siyosat yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va yoshlar kelajagini kafolatlaydigan g`oyaviy-mafkuraviy asoslarni vujudga keltirishi bilan bog`liq bo`lib, ularning bilim olishlarini, ma`naviy kamolotini, tarixiy qadriyatlarga sodiqligini, mehnatga munosabatini, vatan`arvarlik tuyg`usini, milliy g`urur va iftixon hissini tarbiyalash jarayonini oqilona tashkil qilish, haqli ravishda, davlat siyosati va keng jamoatchilikning diqqat markaziga qo`yilmokda. Zero, "Yoshlarimiz qalbida sog`lom hayot tarziga intilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda.- Toshkent, O`zbekiston.-B. 6-7.

tuyg`ularini bolalik `aytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Bu borada hech qanday rasmiyatchilik va yuzaki yondashuvlarga yo`l qo`yish mumkin emas. Ushbu dasturning amalga oshirilishi nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy ahamiyatga ega ekanini barchamiz aniq va ravshan anglab olishimiz zarur".<sup>127</sup>

Biroq, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tishning hozirgi davri bu muammolarni hal qilishning muayyan qiyinchiliklarini keltirib chiqarmoqda. Xususan, yoshlar o`rtasida ishsizlikning nisbatan yuqori ko`rsatkichlari, turar-joy va boshqa hayot darajasining `astligi, `sixolo-gik-ruhiy hamda amaliy kunikmalari jihatidan bozor munosabatlariga tayyor emasligi, ularning ijtimoiy-siyosiy mo`ljallarini to`g`ri belgilashlariga salbiy ta`sir o`tkazmoqda. Natijada, yoshlar o`rtasida bekorchilikdan kelib chiqadigan "ijtimoiy anomaliya" — jinoyatchilik, narkomaniya va boshqa salbiy hodisalarning saqlanib qolishiga sabab bo`lmoqda.

Bunday xodisalarni bartaraf etish uchun milliy g`oya va mafkura ruhidagi ta`lim-tarbiyani davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yunalishiga aylantirish talab qilinadi. Xususan, birinchidan, yoshlarning ma`naviy-axloqiy, jismoniy barkamolligiga yo`naltirilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va hayotga joriy etishda yoshlar tashkilotlarining faoliyatini kuchaytirish; ikkinchidan, davlatni va jamiyatni boshqarish ishlariga yoshlarni keng jalb qilib, ularning hukumat bilan munosabatlarini muvofiqlashtirish, muammolarini hal qilish uchun o`zlariga sharoit va imkoniyat yaratish; uchinchidan, yoshlar iqtisodiy ahvolini, ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustaxkamlashning qonuniy-huquqiy asoslarini yaratib, ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish; to`rtinchidan, ommaviy axborot vositalarida yoshlar haqidagi haqiqiy voqelikni, ularning muammolarini xolis aks ettiruvchi ma`lumotlarni e`lon qilish, "to`rtinchi hokimiyat" sifatida jamoatchilik fikrini shakllantirishni ustuvor vazifaga aylantirish; beshinchidan, yoshlarning jahon hamjamiyatiga, madaniy, texnologik, informatsiya maydonlariga kirib borishlari uchun imkoniyatlarini kengaytirish; oltinchidan, yoshlar ta`lim-tarbiyasining `edagogik-didaktik usullarini, vositalarini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish,

---

<sup>127</sup>Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash - barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. "Xalq so'zi", 2008 yil, 9 fevral.

Milliy dastur va Ta`lim haqidagi qonunlarning hayotga izchil joriy qilinishini ta`minlash - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasini amalga oshirishning zaruriy shartlaridir.

Darxaqiqat yurtbo'shimiz Islom abdug'anievich Karimov o'zining "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" nomlm asarida ushbu masalaga aloxida to'xtalib quyidagi fikrlarini bayon etdi. "Bugun biz g'oyat murakkab, taxlikali va qaltis bir zamonda yashayotganimizni barchangiz yaxshi bilasiz.

Hozirgi vaqtida dunyoning uzoq-yaqin turli hududlarida yuz berayotgan tashvishli vokealar, jumladan, bizning mintaqamizda, yon-atrofimizda kuchayib borayotgan xavf-xatarlar, qonli to'qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar, terrorizm, radikalizm, narkotrafikning tobora avj olayotgani tinchlik va barqarorlikka qanday katta taxdid tug'dirayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha ga'irib o'tirishning hojati yo'q.

Mana shunday tobora keskinlashib borayotgan bir vaziyatda, biz hushyorlik va sergakligimizni yo'qotmasdan, kimlar bizga xayrixoh, kimlar garazli ko'z bilan karayotganini, bugungi hayot, bugungi davr bizning oldimizga qanday o'tkir talab va vazifalarni qo'yayotganini chuqur anglab, ogoh, sezgir va safarbar bo'lib yashashimiz talab qilinmoqda".<sup>1</sup>

"Biz uchun tinchlik va omonlik kerak. Haqiqatan ham, yurtimizdagি qaysi xonadonga kirmang, qariyalarimiz duoga qo'l ochib, Yaratgandan, avvalo, el-yurtimizga tinchlik va omonlikni so'raydi. Tinchlik bo'lsin, xo- tirjamlik bo'lsin deydi. Turli balo-qazolar bizga yaqin kelmasin, ostonamizga yo'lamasin deydi. Far- zandlariga, nabiralariga uzoq umr va baxt tilaydi. CHunki xalqimiz tinchlik bo'lsa, farovonlik va taraqqiyot bo'lishini yaxshi biladi, tinchlikning qadr - qimmatini xshi anglaydi".<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. -T. «O'zbekiston», 2015.-B.273.

<sup>2</sup> Karimov I.A Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. -T. «O'zbekiston», 2015.-B.275-276

“Men har yili 9 may - Xotira va qadrlash kuniga bag’ishlab o’tkaziladigan marosimda xalqimiz o’rtasida mashxur bo’lib ketgan O’zbekistonga tinchlik va omonlik kerak» degan iborani takrorlayman. Biz bugungi kunda ayni shu maqsadga javob beradigan siyosatni olib bormoqdamiz va bu yo’ldan hech qachon qaytmaymiz”<sup>1</sup>.

“Agar tinchlik-osoyishtalik bo’lmasa, mehr-oqibat bo’lmasa, biz orzu qilgan va intilayotgan erkin va farovon hayotni qurib bo’lmaydi”<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> O’sha asar – B.276.

<sup>2</sup> O’sha asar – B.277.

## XULOSA

Har bir davlat va jamiyat o`ziga xos rivojlanish modellariga ega bo`lib, ular bir-biridan shakli, mazmuni jmhatdan farq qilsa ham, umumiylar rivojlanish qonuniyatlarini istisno qilmaydi. Bir tomondan bunday umumiylilik insoniyatning ezgu maqsadlari doirasida uyushish, ji`slashish manfaatlarini ifodalaydi. Ikkinci tomondan, milliy taraqqiyotdagi o`ziga xoslik muayyan davlatning siyosiy tuzumi, iqgisodiy hayoti, madaniy turmushi, g`oyaviy-mafkuraviy muhiti ta`sirida shakllanadi. **Sodda qilib aytganda, muayyan davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi hayotning o`zi o`rtaga qo`yayotgan shart va talablarning hisobga olinishini taqazo etadi.** Aytish mumkinki, taraqqiyotning har bir bosqichi - bu yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo`lidagi yangi vazifalar demakdir. Bu - hayot qonuniyati, biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz ham yo`q.

Darhaqiqat, har qanday jamiyatning, davlatning muayyan tarixiy davrdagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti mafkuralar vorisligi tamoyiliga asoslansa ham, konkret milliy xususiyatlari mavjud. Boshqacha aytganda, milliy tarixiy taraqqiyotning mavjudligi, uning g`oyaviy-mafkuraviy mazmunida namoyon bo`ladi. SHuningdek, tarixiy taraqqiyot va g`oya hamda maf-kuralarning millat manfaatlari asosida uyg`unlashuvi, uni real kuchga aylantiradi, ya`ni "**milliy g`oya xalqning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi va uni o`zida ifoda etadi**".<sup>1</sup>

Hozirgi sharoitda milliy mafkuramizning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyalari shakllanib, ular o`zbek xalqi tarixiy taraqqiyoti davomida sinovlardan o`tgan. Bu g`oyalalar mazmun-mohiyati jihatdan bir-birini to`ldiradigan hamda mantiqiy izchil, gumanistik xarakterni namoyon qiladi.

Shu o`rinda, bu g`oya va mafkuralar mamlakatdagi muayyan hukmron siyosiy kuchlarning vaqtinchalik maqsadlariga, mavsumbozlik

---

<sup>1</sup>Karimov.I.A. O`z kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qurmokdamiz –T, 'O`zbekiston, 1998.-B.8.

tadbirlariga xizmat qilsa, ularning ijtimoiy-siyosiy nufuzini yo`qotishini alohida ta`kidlash kerak.

Milliy taraqqiyot g`oyasi va mafkuraning dunyoviy xarakteri, gumanistik mohiyati jamiyat ijtimoiy-siyosiy sistemasini tashkil qilgan strukturaviy elementlar o`rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma`naviy munosabatlarni demokratik tamoyillar asosida tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishing ob`ektivligi hamda tarixiy zaruriyati bilan belgilanadi. Zero, milliy taraqqiyot g`oyasining tarixiy ildizlari, ularning mavjudligini va kelajakda yashovchanligini ta`minlaydi. Xususan, milliy mafkuraning bosh g`oyasi o`z mohiyatiga ko`ra, mustaqillikni mustahkamlash, farovon hayotni bar`o etish, erkinlik va ozodlikni tarannum etuvchi fikrlarni mujassamlashtiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

### **I. Qonunlar va me`yoriy hujjatlar**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T: “O`zbekiston”, 2015.

### **II. Ishning metodologik asosini belgilagan asarlar.**

1. Karimov I.A Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. -T. «O`zbekiston», 2015, 275-277-betlar.
2. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarni ta`minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo`lishiga erishish-bizning bosh maqsadimizdir. Turkiston. 2012 y 9 dekabr
3. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikga erishish ostanasida. –Toshkent: O`zbekiston, 2011.-127,128 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati bar`o etish-ustuvor maqsadimiz. T: “O`zbekiston”, 2010 yil
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish kontseptsiysi. T: “O`zbekiston”, 2010 yil
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontse`tsiyasi. Xalq so`zi. 2010y. 13 noyabr
7. Karimov I. A. YUksak ma`naviyat yengilmas kuch. T: «Ma`naviyat» 2008.-27 b
9. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz-yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo`lini qat`iyat bilan davom ettirishdir. T. “O`zbekiston” 2007 y.
10. Karimov I.A. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. T. “O`zbekiston”, 2007 y.
11. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T: “O`zbekiston”, 2005 yil

12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l-demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. T: “O`zbekiston”, 2003 yil
13. Karimov I.A. Hayotimizning taraqqiyotimizning huquqiy asosi. // Xalq so`zi. 2002y. 7 dekabr
14. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-`irovard maqsadimiz. 8 jald. T: “O`zbekiston”, 2000 yil
15. Karimov I. Milliy istiq lol mafkurasi - xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.:O`zbekiston, 2000.
16. Karimov I. O`z kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qurmoqdamiz. - T.: O`zbekiston, 1999.
17. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -T.: O`zbekiston, 1998.
18. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: “O`zbekiston”, 1997 yil
19. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T: “O`zbekiston”, 1996 yil
20. Karimov I.A. Istiklol va ma`naviyat. T., 1994.

### **III. Mavzuga oid ilmiy asarlar, monografiyalar.**

1. Alimova D. A. Insoniyat tarixi g`oya va mafkuralar tarixidir. T., «YAngi asr avlod», 2001.
2. Jo`raev N. Mafkuraviy immunitet. T., «Ma`naviyat», 2001.
3. Munavvarova Musfira Milliy g`oyaning ma`naviy ildizlari T., «Ma`naviyat», 2011
4. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: 2001.
5. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T: “O`zbekiston”, 2000 yil
6. Nazarov Q. N. Milliy istiqlol g`oyasining asosiy maqsad va vazifalari. T., «YAngi asr avlod», 2001. )
7. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A.. Markaziy Osiyo:

g`oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. T., «YAngi asr avlodi», 2001.

8. Ochildiev A. Milliy g`oya va millatlararo munosabatlari. T., «O`zbekiston», 2004.
9. Po`latov H. P. O`zbek mafkurasi. // Muloqot. Toshkent — 1991, № 6,7.
10. Xayrullaev M. M. Orta Osiyoda IX—XII asrlarda madaniy taraqqiyot (Uyg`onish davri madaniyati). T., «Fan», 1994.24.
11. SHarifxo`jaev M. O`zbekiston: yangi g`oyalar, yangi yutuqlar. T., 2002.
12. Erkaev A. ` Milliy g`oya va ma`naviyat. T., «Ma`naviyat», 2002. Ma`naviyat va taraqqiyot. T., «Ma`naviyat», 2009.
13. Qudratov G`. Pardaev M. O`zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo`li: natijalar va vazifalar. T. 2007y.
14. Qo`chqorov. Ma`naviyat va milliy o`zlikni anglash. T., «Akademiya», 2008.

#### **IV. Internet manbalari.**

1. www. gov. uz
2. www. press - service. uz.
2. www. bilim. uz.
3. www. faylasuf.uz.